

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” FAKULTETI**




“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI”

kafedrası

**“Yo`l harakati qoidalari”
fanidan amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish uchun**

USLUBIY QO`LLANMA



*Qaysi
transport
vositasi
chorrahani
birinchi
bo`lib kesib
o`tadi.*

ANDIJON - 2017

“TASDIQLAYMAN”
Andijon mashinasozlik instituti
o`quv-uslubiy kengashida ko`rib chiqilgan va ma`qullangan
(Kengashining 2017-yil 24-08-2017 dagi 1-sonli bayonnomasi)
Ro`yhatga o`lindi. № 1/2017
Kengash raisi Q.Ermatov

“MA`QULLANGAN”
“Mashinasozlik” fakulteti
kengashi yig`ilishida muhokama qilingan va ma`qullangan
(Kengashining 2017-yil 24-08-2017 dagi 1-sonli bayonnomasi)
Kengash raisi v.v.b. M.Qo`chqarov

“TAVSIYA ETILGAN”
“Yer usti transport tizimlari” kafedrasida
majlisida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan
(Kafedra yig`ilishining 2017-yil 22-08-2017 dagi 1-sonli bayonnomasi)
Kafedra mudiri N.Ikromov

TUZUVCHILAR:

1. S.S.Ortiqov - And MI “Yer usti transport tizimlari” kafedrasida katta o`qituvchisi.
2. U.S.Xolmatov - And MI “Yer usti transport tizimlari” kafedrasida katta o`qituvchisi.
3. A.M.Sarimsaqov - And MI “Yer usti transport tizimlari” kafedrasida assistenti.

TAQRIZCHILAR:

1. O`Mashrapov – O`zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi Andijon viloyati boshqarmasi boshlig`i.
2. T.O.Almatayev – AndMI “Avtomobilsozlik” kafedrasida mudiri, dotsent, t.f.n.

Ushbu uslubiy qo`llanma 5 310600 - “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” bakalavr yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, u na`munaviy va ishchi dasturiga mos qilib tayyorlangan. Unda “Yo`l harakati qoidalari” fanini amaliy o`rganish uchun ma`lumotlar berilgan.

MUNDARIJA

1.	Tushunchalar, atamalar va harakat ishtirokchilarining vazifalari, yo`l belgilari, ularni har xil yo`l sharoitlarida qo`llanilishi.....	4
2.	Yo`l belg`i chiziqlarining har xil yo`l sharoitlarida qo`llanilishi	8
3.	Maxsus transport vositalarining imtiyozlari va harakatni tartibga solish, ishoralarni berish va harakatlanish tartibi.....	11
4.	Yo`lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi, va harakatlanish tartibi.....	14
5.	Chorrahalarda va maxsus joylarda harakatlanish	16
6.	Murakkab yo`l sharoitida harakatlanish	20
7.	Transport vositalaridan foydalanish	24
8.	Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar	27
9.	YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko`rsatish	31
10.	YHQB haydovchi va mansabdor shaxslarning javobgarligi	35
11.	Haydovchi o`rindig`ini sozlash boshqarish tizimlaridan to`g`ri foydalanish.....	38
12.	Yo`llarda harakatlanish va harakat xavfsizligiga ta`sir etuvchi faktorlar....	42
13.	Haydovchining ko`rish sezgirligi, axborotlarni tahlil qilish.....	47
14.	Avtomobilni boshqarishda haydovchining kasbiy mahorati.....	50
15.	Haydovchining etikasi.....	53
16.	Transport ishini samarali va xavfsiz bajarish bo`yicha mumkin bo`lgan ko`rsatkich hamda avtomobilga ta`sir etuvch kuchlar.....	56
17.	Avtomobilni chorrahalarda va har xil yo`l sharoitlarida boshqarish.....	59
18.	Parkinglar va ularning turlari.....	62
19.	Foydalanilgan adabiyotlar.....	67

AMALIY MASHG'ULOT № 1

MAVZU: Tushunchalar, atamalar va harakat ishtirokchilarining vazifalari, yo'l belgilari, ularning har xil yo'l sharoitlarida qo'llanilishi

I. Ishning maqsadi: Fanga doir tushunchalar, atamalar va harakat ishtirokchilarining vazifalari, yo'l belgilari, ularning har xil yo'l sharoitlarida qo'llanilishini o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Avtomagistral - transport vositalarining yuqori tezlik va havfsiz harakatlanishini ta'minlovchi yo'l bo'lib, 5.1 (yashil rangdagi) belgi bilan belgilanadi. Avtomagistraldagi barcha ahborot ishora belgilari yashil rangda bo'ladi.

Velosiped - odam kuchi bilan harakatlantiriladigan ikki yoki undan ortiq g'ildirakli transport vositasi (nogironlar aravachasidan tashqari).

Etarli ko'rinmaslik - yomg'ir, qor yog'ishi, tuman tushishi va shunga o'xshash sharoitlarda, shuningdek, kunning g'ira-shira vaqtida yo'lning ko'rinish masofasi 300 metrdan kam bo'lishi.

Yondosh hudud - bevosita yo'lga tutashgan va transport vositalari o'tib ketishi uchun mo'ljallanmagan hudud (hovlilar, turar joy dahalari, avtomobillarning to'xtab turish joylari, yonilg'i quyish tarmoqlari, korhona va h.k.).

1. Ogohlantiruvchi belgilar - yo'l harakati qatnashchilariga yo'l harakatlanishda vaziyatga qarab chora ko'rishni talab qiladigan havfli qismlarni joylashuvi hamda ularni hususiyatlari to'g'risida ma'lumot berish uchun qo'llaniladi

Ogohlantiruvchi belgilar 31 ta bo'lib, ularni asosiy qismining ko'rinishi uchburchak shaklida, xoshiyasi qizil, foni oq va tasviri qora rahgda berilgan bo'ladi. Qolaversa to'rtburchak va kesishma shakllarida ham berilgan. Ogohlantiruvchi belgilar aholi yashaydigan joylarda havfli joydan 50-100 metr, aholi yashaydigan joylardan tashqarida esa 150-300 metr oldin o'rnatiladi.



2. Imtiyoz belgilari - chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek, yo'lning tor qismida yo'l harakati qatnashchilarining harakatlanishi navbatini belgilash uchun qo'llaniladi.

Imtiyoz belgilari 7 ta bo'lib, ular ko'rinishi jihatidan har xil, chunki bu belgi guruhi boshqa yo'l belgi guruhlaridan tashkil topgan. Shuning uchun ham

uchburchak, to'rtburchak va doira shaklidagi ko'rinishga ega. Bu belgilar bevosita kesishma, tutashma va yo'lining tor qismlariga o'rnatiladi.



3. Taqiqlovchi belgilar - yo'l harakatiga ma'lum cheklanishlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo'llaniladi.

Taqiqlovchi belgilar 31 ta bo'lib, ularning asosiy qismining ko'rinishi doira shaklida bo'lib, xoshiyasi qizil, foni oq va tasviri qora va qizil ranglarda berilgan bo'ladi.



4. Buyuruvchi belgilar - transport vositalariga ko'rsatilgan yo'nalishda yoki faqat ma'lum yo'nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuradi. Buyuruvchi belgilar doira shaklda bo'lib, foni ko'k, tasviri oq rangda bo'ladi.



5. Ahborot - ishora belgilari - harorat qatnashchilariga yo'ldagi harakat tartibi hususiyatlari hamda aholi yashaydigan joylar va manzillarning joylashuvi haqida ma'lumot berish uchun qo'llaniladi.


Ahborot ishora belgilari asosan to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, foni ko'k, yashil, oq va sariq rangda bo'ladi. Tasviri esa oq va qora rangda bo'ladi. Ahborot ishora belgilari 40 ta bo'lib, ma'lum belgilari turlanadi.

Yashil fonli ahborot - ishora belgilari avtomagistrallarga ta'luqli ekanligini bildiradi. Oq fonli ahborot – ishora belgilari aholi yashash joyidaligini bildiradi. Sariq fonli ahborot – ishora belgilari esa ta'mirlash ishlari ketayotgan yo'llarga o'rnatiladi.



6. Servis belgilari - transport vositalari, yo'lovchilar va haydovchilarga hizmat ko'rsatish joylari haqida ma'lumot berish uchun qo'llaniladi.

Servis belgilari to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, foni ko'k va oq rangda, tasviri esa qora rangda berilgan bo'ladi. Servis belgilari 12 ta bo'lib, asosan bevosita joyning o'ziga o'rnatilgan bo'ladi.



7. Qo'shimcha ahborot belgilari - ular bilan birgalikda qo'llangan belgilarga aniqlik kiritish yoki ularning ta'sirini cheklash uchun qo'llaniladi.

Qo'shimcha ahborot belgilari ham to'rtburchak shaklida bo'lib, fono oq, tasviri qora rangda bo'ladi. Qo'shimcha ahborot belgilari 18 ta bo'lib, bazilari turlanadi.



III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko'rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Tushunchalar, atamalar va harakat ishtirokchilarining vazifalarini o'rganish.

2. Ogohlantiruvchi belgilarni o`rganish.
3. Taqiqlovchi belgilarni o`rganish.
4. Imtiyoz belgilarini o`rganish.
5. Buyuruvchi belgilarni o`rganish.
6. Axborot ishora belgilarini o`rganish.
7. Servis belgilarini o`rganish.
8. Qo`shimcha axborot belgilarni o`rganish.

V. Hisobot yozish:

1. Yo`l belgilariga ta`rif bering.
2. Yo`l belgilari sxemasini chizish.
3. Berilgan belgilarga qarab qaysi yo`l belgi guruhiga tegishliligini aniqlang (1-jadval).
4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

1-Jadval.

№	Belgilar	Ogohlantiruvchi	Imtiyoz	Taqiqlovchi	Buyuruvchi	Axborot ishora	Servis	Qo`shimcha ishora
1								
2								
3								
4								
5								
6								
7								
8								
9								
10								


AMALIY MASHG'ULOT № 2

MAVZU: Yo'l belg'i chiziqlarining har xil yo'l sharoitlarida qo'llanilishi.

I. Ishning maqsadi: Yo'l belgi chiziqlarining turlari, ularning har xil yo'l sharoitlarida qo'llanilishini o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Ma'lumki, yo'l belgi chiziqlari **yotiq** va **tik** chiziqlarga bo'linadi. **Yotiq chiziqlar** yo'l yuziga chizilib, asosan harakatlanish tartibini belgilaydi. Yotiq chiziqlar ko'rinishi, ya'ni rangi bo'yicha oq va sariq rangda bo'ladi. Oq rangli yotiq chiziqlarning o'zi uzluksiz, uzuq-uzuq, yozuvlar va raqamlar ko'rinishidan iborat bo'lib, ular bir biridan o'lchamlari bilan farq qiladi. Sariq rangli yotiq chiziqlar uch xil bo'ladi: uzluksiz, uziq-uziq va zigzag shaklida. Bularning ham chizilish joylarini, ularning ahamiyatini aniq bilib olish talab etiladi.



1.1. Yo'lning o'rtasida chizilgan ensiz, sidirg'a oq chiziq qarama-qarshi transport oqimini ajratadi. *Chiziqni kesib o'tish taqiqlanadi.*

1.2. Avtomagistrallarda qatnov qismining chekkasiga chizilgan enli (20 sm) uzluksiz sidirg'a chiziq qatnov qismining chegarasini bildiradi.

Chiziqni istalgan tarafdin kesib o'tish mumkin.

Tik chiziqlar yo'l inshootlarini va jihozlari yuzlariga ketma-ket chizilgan yo'l-yo'l, oq-qora chiziqlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning o'lchamlarini ko'rsatishda, ko'z bilan chamalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Osmon bulut, kul rang bo'lganda, qorong'i vaqtlarda yo'lning yoritilmagan qismlarida yo'l yoqasidagi tik beton inshootlarining rangi osmon va yo'lning rangi

bilan juda o`xshab ketadi va harakatdagi haydovchi ularni farqlay olmay, beton inshootlarini ko`rmay qoladi. Bu hol haydovchini beton inshootlarga urilib ketishiga olib keladi.



2.1- Yo`l belgi chiziqlar ko`priklar, osma yo`llar ustunlari yuzasiga chizilib harakatlanayotgan transport vositasi haydovchisiga yo`ldagi xavf soluvchi to`siqning rangini keskin ajratib, ko`rinishini osonlashtiradi.

2.2- Yo`l belgi chiziqlar tonellar, ko`priklar, osma yo`llar va ko`priklarni pastki qirralariga chizilgan oq-qora rangli chizma haydovchiga inshootning pastki qismini farqlashini osonlashtiradi.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoproyektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.





IV. Amaliy qism:

1. Yo`l chiziqlarining turlarini o`rganish.
2. Yotiq chiziqlarni o`rganish.
3. Tik chiziqlarni o`rganish.

V. Hisobot yozish:

1. Yo`l chiziqlariga ta`rif bering.
2. Yo`l chiziqlari sxemasini chizish.
3. Berilgan chizmadagi yo`l chiziqlarini nomlang (2-jadval).
4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

2-Jadval.

№	Yo'l chiziqlari	Yo'l chiziqlari nomlari
1.		<p>1.1.</p> <p>1.4.</p> <p>1.5.</p> <p>1.10.</p>
2.		<p>1.2.</p> <p>1.5.</p> <p>1.16.2.</p> <p>1.8.</p> <p>1.18.</p> <p>1.22.</p>
3.		<p>1.3.</p> <p>1.10.</p> <p>1.13.</p> <p>1.14.2.</p> <p>1.16.1.</p> <p>1.17.</p> <p>1.18.</p>
4.		<p>2.1.</p> <p>2.7.</p>

AMALIY MASHG'ULOT № 3

MAVZU: Maxsus transport vositalarining imtiyozlari va harakatni tartibga solish, ishoralarni berish va harakatlanish tartibi.

I. Ishning maqsadi: Maxsus transport vositalarining imtiyozlarini, harakatni tartibga solish, ishoralarni berish va harakatlanish tartibini o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Ko'k rangli yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqchasi va (yoki) maxsus tovushli ishorasi yoqilgan tezkor maxsus xizmat transport vositalarining haydovchilari kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarayotib, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ushbu Qoidalarining 8-bob (8.9-bandidan tashqari), 10-15, 18-19-boblari, Qoidalarining 1- va 2-ilovalari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. Ko'k rangli chiroq-mayoqchaga qo'shimcha qizil rangli chiroq-mayoqcha ham yoqilishi mumkin.



Boshqa yo'l harakati qatnashchilariga nisbatan imtiyozga ega bo'lishlari uchun bunday transport vositalarida yalt-yalt etuvchi chiroq- mayoqchas *yoqilgan* va (yoki) maxsus tovushli ishorasi qo'shilgan bo'lishi shart. Ular o'zlariga yo'l berilayotganligiga ishonch hosil qilganlaridan so'nggina imtiyozdan foydalanishlari mumkin.

Tezkor xizmat va maxsus xizmat transport vositalarini kuzatib kelayotgan transport vositalari ham shu imtiyozlardan foydalanadilar.




Haydovchilar ko'k rangli chiroq – mayoqchani *yoqqan* va (yoki) maxsus tovushli ishoralarni qo'shgan holda yaqinlashib kelayotgan transport vositalariga, shuningdek, ularning kuzatuvidagi yaqinni yorituvchi chiroqlari yoqilgan transport vositalariga yo'l berishlari, zarur bo'lgan hollarda ularning to'siqsiz o'tib ketishlari uchun o'zlari boshqarib borayotgan transport vositalarini yo'lning o'ng tomoniga olib to'xtatishlari shart.

Ko'k rangli chiroq-mayoqchasini yoqib turgan transport vositasiga yaqinlashayotgan haydovchilar zarur bo'lib qolganda darhol to'xtash imkoniyatini beradigan darajada harakatlanish tezligini kamaytirishi shart.

Zarg'aldoq yoki sariq rangli chiroq – mayoqchasi yoqilgan, yo'ldan foydalanish xizmatiga tegishli moslama va transport vositalarining haydovchilari ish bajarish jarayonida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ushbu Qoidalarining yo'l belgilari, chiziqlari hamda 11.4, 11.5, 11.8, va 18.1 bandlari

talablaridan chetga chiqishlari mumkin. Boshqa haydovchilar ularning ish bajarishlariga to'sqinlik tug'dirmasliklari shart. Zarg'aldoq va sariq rangli chiroq-mayoqcha harakatlanishda imtiyoz bermaydi va u faqat boshqa harakatlanish qatnashchilarining e'tiborini jalb etish uchun xizmat qiladi.

Chorrahalarda harakatni tartibga soluvchining uchta ishoralari bo'lib ular quyidagilar.

<p>1-xolat. Qo'lni yuqoriga ko'targanda barcha yo'nalishdagi transport vositalariga va piyodalarga harakatlanish taqiqlanadi.</p>	
<p>2-xolat. O'ng qo'lni oldinga uzatilganda, chap yonidan tramvayga chapga, relssiz transport vositalariga barcha yo'nalishlarda, oldi tomonidan barcha transport vositalariga faqat o'ngga harakatlanishiga ruxsat beriladi. Orqa tomondan va o'ng yonidan barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi. Piyodalarga tartibga soluvchining orqa tomonidan qatnov qismini kesib o'tishga ruxsat etiladi.</p>	
<p>2-xolat. Qo'lni yon tomonga uzatilganda yoki tushirilganda, chap va o'ng tomonidan tramvayga to'g'riga, relssiz transport vositalariga, to'g'riga va o'ngga harakatlanishga, piyodalarga qatnov qismini kesib o'tishga ruxsat beriladi. Oldi va orqa tomondan barcha transport vositalari va piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi.</p>	

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko'rsatma.



IV. Amaliy qism:

1. Maxsus transport vositalarining imtiyozlarini o`rganish.
2. Harakatni tartibga solish va tartibga soluvchining ishoralarini o`rganish.
3. Yo`llarda harakatlanish tartibini o`rganish.

V. Hisobot yozish:

1. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari va tartibga soluvchining ishoralarini qisqacha ta`rifi.
2. Harakatlanishni tartibga soluvchining ishoralari sxemasini chizish.
3. Berilgan testlarni yechish. (3-jadval).
4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

3-Jadval.

<p>1.</p>	<p>Qaysi transport vositalariga harakatlanishga ruxsat etilgan?</p> 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qizil (3) va oq (5) avtomobillarga. 2. Yashil (2) va oq (5) avtomobillarga. 3. Oq (5), ko`k (1) va sariq (4) avtomobillarga.
<p>2.</p>	<p>Harakatlanish ruxsat berilgan:</p> 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Faqat chapga. 2. To`g`riga va chapga. 3. To`g`riga va o`ngga. 4. Faqat o`ngga.
<p>3.</p>	<p>Qaysi transport vositasi haydovchisi to`g`riga harakatlanish xuquqiga ega?</p> 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Avtobus va mototsikl haydovchilari. 2. Yengil va yuk avtomobillari haydovchilari. 4. Yengil avtomobil haydovchisi.

AMALIY MASHG'ULOT № 4



MAVZU: Yo'ning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi, va harakatlanish tartibi.

I. Ishning maqsadi: Maxsus transport vositalarining imtiyozlarini, harakatni tartibga solish, ishoralarni berish va harakatlanish tartibini o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Relssis transport vositalarining yo'ning qatnov qismida bo'laklar bo'yicha munosib joylashuvi yo'ning o'tkazish qobiliyatini yuqorilashishini ta'minlaydi. Relssis transport vositalarining harakatlanadigan

bo'laklar soni chiziqlar yoki 5.8.1. , 5.8.2. , 5.8.7. , 5.8.8. 
yo'l belgilari bo'lmasa, haydovchilar yo'l bo'laklarini o'zlari, qatnov qismining kengligini, transport vositalari orasidagi zarur yonlama oraliq masofani va ularning gabarit o'lchamlarini hisobga olgan holda aniqlaydilar. Bunda harakat ikki tomonlama bo'lgan yo'l qatnov qismining chap tomondagi yarmi qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan deb hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, harakatlanish bo'lagi transport vositalarining bir qator bo'lib (ikki g'ildirakli mototsikllardan tashqari) harakatlanish uchun mo'ljallangan, uning eni Davlat na'munasi (GOST-13508-75)ga ko'ra yo'ning toifasiga qarab 2.5-4.0 metr kenglikda belgilangan.



Reversiv harakatlanishli yo'lga burilayotgan transport vositalari qatnov qismlari kesishmasidan chiqishda chetki o'ng bo'lakni egallashi kerak. Haydovchiga shu yo'nalishdagi boshqa bo'laklarda ham harakatlanishga ruxsat berilganligiga ishonch xosil qilgandan keyingina qayta tizilishga ruxsat etiladi.

Bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq sekinyurar transport vositalarini quvib o'tish har doim ham xavfsiz bo'lavermaydi. Shuning uchun quvib o'tilayotgan transport vositasi haydovchisi quvib o'tayotgan haydovchiga imkon berishi kerak.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.

3. Uslubiy ko`rsatma.



IV. Amaliy qism:

1. Yo`lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishini o`rganish.
2. Yo`llarda harakatlanish tartibini o`rganish.

V. Hisobot yozish:

1. Transport vositalarining yo`lning qatnov qismida joylashuviga ta`rif bering.
2. Yo`lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi sxemasini chizish.
3. Berilgan testlarni yechish (4-jadval).
4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

4-jadval.

1.	<p>Qaysi transport vositasining haydovchisi yo`l berishi kerak?</p> 	<ol style="list-style-type: none">1. Yuk avtomobil haydovchisi.2. Yengil avtomobil haydovchisi.
2.	<p>O`ngga burilganda shu belgi bilan belgilangan bo`lakka o`tishga ruxsat etiladimi?</p> 	<ol style="list-style-type: none">1. Ruxsat etiladi.2. Taqiqlanadi.3. Agar bo`lak qolgan harakat qismidan yotiq sidirg`a chiziq bilan ajratilmagan bo`lsa, ruxsat etiladi.
3.	<p>Qoidalarga ko`ra shatakka olish vaqtida bir-biriga ulangan transport vositalari tarkibining umumiy uzunligi qancha bo`lishi mumkin?</p>	<ol style="list-style-type: none">1. 20m.2. 21m.3. 22m.4. 23m.5. 24m.
4.	<p>Bu belgi bilan belgilangan yo`l qismlarida ajratuvchi bo`lakning uzilish joyida qayrilishga ruxsat etiladimi?</p> 	<ol style="list-style-type: none">1. Ruxsat etiladi.2. Taqiqlanadi.3. Faqat to`la vazni 3,5 tonnagacha bo`lgan transport vositalariga ruxsat etiladi.
5.	<p>Qattiq ulagich transport vositalari orasida ko`pi bilan qancha masofani tahminlashi kerak?</p>	<ol style="list-style-type: none">1. 2 m., 2. 3 m., 3. 4 m., 4. 5 m., 5. 6 m.

AMALIY MASHG`ULOT № 5

MAVZU: Chorrahalarda va maxsus joylarda harakatlanish.



I. Ishning maqsadi: Chorrahalarda va maxsus joylarda harakatlanishni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma`lumotlar: Chorraha yo`llarning o`zaro bir sathda kesishadigan, tutashadigan va ayriladigan joyi bo`lib, bu yerda harakatlanish tartibga solingan yoki tartibga solinmagan bo`lishi mumkin.

Yondosh xududlarning asosiy yo`lga qo`shilgan joylari chorrha hisoblanmaydi.

Miltillovchi sariq ishorada, svetoforlar ishlamayotgan yoki tartibga soluvchi bo`lmagan chorrahalarda haydovchilar tartibga solinmaydigan chorrahalardan o`tish qoidalariga, chorrhada o`rnatilgan imtiyoz belgilariga amal qilishlari shart.

Tartibga solingan chorrahalalar. Chorrhadagi harakatlanish navbatini svetofor yoki tartibga soluvchi belgilaydigan bo`lsa, bunday chorraha tartibga solingan chorrha hisoblanadi.

	<p>Svetoforning yashil ishorasida chapga burilayotgan yoki qayrilib olayotgan relssiz transport vositasining haydovchisi qarama-qarshi tomondan to`g`riga harakatlanayotgan va o`ngga burilayotgan transport vositalariga yo`l berishi shart. Tramvay haydovchilari ham o`zaro ushbu qoidaga amal qilishlari kerak.</p>
<p>Svetoforning qizil yoki sariq, ishorasi bilan bir vaqtda yongan ko`shimcha tarmoqning yashil ishorasidagi yo`naltirgich yo`nalishida harakatlanayotgan transport vositasining haydovchisi boshqa yo`nalishlardagi transport vositalariga yo`l berishi kerak.</p>	

Tartibga solinmagan chorrahalalar. Transport oqimi zich va serqatnov bo`lmagan yo`llarning kesishmasidagi chorrahalarda harakatlanish tartibini imtiyoz belgilari, ular bo`lmaganida haydovchilarning o`zlari o`zaro yo`lning qoplamasi bor-yopqligiga, chorrhaga yaqinlashayotgan transport vositasining o`ng va chap tarafda joylashganligiga qarab belgilaydilar.

Svetofor yoki tartibga soluvchi bo`lmagan va shu qatori svetoforning miltillovchi sariq ishorasida svetofor ishlamayotgan chorrahalalar tartibga solinmagan chorrha hisoblanadi.

Chorrahalalar yo`llarning ahamiyatiga (darajasiga) qarab, teng ahamiyatli va teng ahamiyatli bo`lmagan yo`llar kesishadigan chorrahalarga bo`linadi.

Teng ahamiyatli bo`lmagan yo`llar kesishgan chorraha imtiyoz belgilari bilan belgilangan yoki qoplamasi bor va qoplamasi yo`q yo`llarning kesishmasi hisoblanadi.

Teng ahamiyatga ega bo`lmagan yo`llar kesishgan chorrahada asosiy yo`lning yo`nalishi o`zgarmagan yoki o`zgargan bo`lishi mumkin. Asosiy yo`lning yo`nalishi o`zgargan bo`lsa, chorraha «asosiy yo`lning yo`nalishi» belgisi bilan ta`minlanadi. Bunday chorrahaga yaqinlashayotgan haydovchi chorrahada imtiyoz berilgan yo`nalishni aniqlay olishi kerak.

Chapga yoki o`ngga burilayotgan haydovchi kesishayotgan yo`lning qatnov qismidan o`tayotgan piyodalarga, shuningdek, velosiped yo`lkasidan yo`lni kesib o`tayotgan velosipedchilarga yo`l berishi kerak.




Teng ahamiyatga ega bo`lmagan yo`llar kesishgan chorrahada, keyingi harakat yo`nalishidan qatpi nazar, asosiy yo`ldan kelayotgan transport vositasiga ikkinchi darajali yo`ldan kelayotgan transport vositasining haydovchisi yo`l berishi kerak.

Teng ahamiyatli yo`llar kesishmasi «Teng ahamiyatli yo`llar kesishmasi» (1.6) belgisi bilan ta`minlangan yoki ta`minlanmagan qoplamali yoxud qoplamasiz yo`llarning kesishuvi.

2.05.02-85 -Qurilish normalari va Qoidalariga asosan ikkinchi darajali yo`lning chorrahaga tutash qismini qoplamalashtirish ko`zda tutilgan, lekin bu uni asosiy yo`l bilan teng huquqli qila olmaydi.

Teng ahamiyatga ega bo`lgan yo`llar kesishgan chorrahada relssiz transport vositasining haydovchisi o`ngdan kelayotgan transport vositalariga yo`l berishi shart.



Bu qoidaga tramvay haydovchilari ham o`zaro amal qilishlari kerak. Bunday chorrahalarda, keyingi harakat yo`nalishidan qat`i nazar, tramvay relssiz transport vositalariga nisbatan oldin o`tish xuquqiga ega bo`ladi.

Tirbandlik tufayli to`xtashga majbur bo`lgan haydovchi, agar u ko`ndalang yo`nalishdagi transport vositalarining harakatlanishiga to`squinlik qiladigan bo`lsa, uning chorraha yoki qatnov qismlari kesishmasiga kirishi taqiqlanadi.

Asosiy yo`lning yo`nalishi chorrahada o`zgarganda, asosiy yo`lda harakatlanayotgan haydovchilar o`zaro teng ahamiyatli yo`llar chorrahasidan o`tish qoidasiga amal qilishlari kerak.

Ikkinchi darajali yo`llarda harakatlanayotgan haydovchilar ham o`zaro shu qoidaga amal qilishlari lozim.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.

2. Ko`rgazmali vositalar.

3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Chorraxa turlarini o`rganish.

2. Tartibga solingan chorrahalarda harakatlanish.

3. Tartibga solinmagan chorrahalarda harakatlanish.

4. Maxsus joylarda harakatlanishni o`rganish.

V. Hisobot yozish:



1. Chorraxalarda harakatlanish qoidalariga ta`rif bering.




2. Tartibga solingan va tartibga solinmagan chorraxalar sxemasini chizish.

3. Berilgan testlarni yechish (5-jadval).

4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

5-jadval.

<p>1.</p>	<p>Ko`k avtomobil chorraxadan nechanchi bo`lib o`tadi?</p> 	<p>1. Birinchi. 2. Ikkinchi.</p>
<p>2.</p>	<p>Chorraxadan ikkinchi bo`lib o`tadi:</p> 	<p>1. Tramvay. 2. Qizil avtomobil. 3. Ko`k avtomobil.</p>
<p>3.</p>	<p>Chorraxadan uchinchi bo`lib o`tadi:</p>	<p>1. Yashil (2) avtomobil 2. Qizil (3) avtomobil 3. Ko`k (1) avtomobil 4. Sariq (4) avtomobil</p>


		
<p>4.</p>	<p>Chorrahani ikkinchi bo'lib kesib o'tadi:</p> 	<p>1.Qizil (3) avtomobil. 2.Yashil (2) avtomobil. 3.Ko`k (1) avtomobil</p>
<p>5.</p>	<p>Qaysi transport vositasining haydovchisi yo'l berishi kerak?</p> 	<p>1. Qizil avtomobil.(3) 2. Yashil avtomobil.(2) 3. Ko`k avtomobil.(1)</p>

AMALIY MASHG`ULOT № 6
MAVZU: Murakkab yo`l sharoitida harakatlanish.

I. Ishning maqsadi: Murakkab yo`l sharoitida harakatlanishni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Temir yo`l kesishmalari orqali harakatlanish. Temir yo`l kesishmasi-avtomobil yo`lining temir yo`l bilan bir sathda kesilishi.



Temir yo`l kesishmasida sodir bo`ladigan yo`l-transport hodisasi og`ir oqibatlarga olib kelishi sababli uning oldida tegishli ogohlantiruvchi belgilar o`rnatiladi.

Temir yo`l kesishmalari undan o`tadigan temir yo`l transporti tarkibi jadalligi va avtomobillarning ko`pligiga qarab qo`riqlanadigan (shlagbaumli) va qo`riqlanmaydigan (shlagbaumsiz) bo`ladi.

Shlagbaumli temir yo`l kesishmalarida, shlagbaumdan tashqari, harakatni tartibga soluvchi svetofor, haydovchining e`tiborini jalb etish uchun tovush chiqaruvchi moslamalar bilan jihozlanadi. Harakatlanish xavfsizligini temir yo`l nazoratchisi nazorat qiladi.

Shlagbaumsiz temir yo`l kesishmalari, shlagbaumlidan farqli o`laroq, kesishma yaqinida «bir izli» (1.3.1.) yoki «ko`p izli» (1.3.2.) belgilari o`rnatiladi va xavfsizlik choralarini ta`minlab o`tish haydovchining o`z zimmasiga yuklatiladi.

Transport vositalarining haydovchilari temir yo`llarni faqat temir yo`l kesishmalari orqali, poezd (lokomotiv, drezina)larga yo`l berib, kesib o`tishlari mumkin.

Temir yo`l kesishmalaridan tashqari joylardan uni kesib o`tish juda xavfli hisoblanadi (temir yo`l izlaridan o`ta olmay, majburiy to`xtab qolgan transport vositalari temir yo`lni to`tib qo`yadi va to`qnashuvga sabab bo`ladi).

Temir yo`l kesishmasiga yaqinlashib kelayotgan haydovchi yo`l belgilari va chiziqlariga, svetofor ishoralariga, shlagbaum xolatiga, kesishma navbatchisining ko`rsatmalariga amal qilishi, yaqinlashib kelayotgan poezd (lokomotiv, drezina) yo`qligiga ishonch hosil qilishi shart.

Temir yo`l kesishmasiga kirish quyidagi hollarda taqiqlanadi:


- svetofor ishorasidan qatpi nazar, shlagbaum yopiq, turgan yoki yopila boshlagan holatda;

- shlagbaumning bor-yo`qligidan, uning holatidan qat`i nazar, svetoforning taqiqlovchi ishorasida;

- kesishma navbatchisining taqiqlovchi ishorasida (navbatchi haydovchilarga oldi yoki orqasi bilan turib tayoqchani, qizil chiroq, yoki bayroqchani boshidan baland ko`tarib tursa yoki qo`llarini yonga uzatsa);

Kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to`xtash chizig`i, 2.5 yo`l belgisi yoki svetofor oldida, ular bo`lmaganda shlagbaumgacha kamida 5 metr, shlagbaum bo`lmaganda esa birinchi temir yo`l iziga kamida 10 metr qolganda to`xtashi kerak.

Temir yo`l kesishmasida majburan to`xtab qolgan transport vositasining haydovchisi darhol odamlarni tushirish va kesishmani bushatish choralarini ko`rishi kerak.



2. Avtomagistrallarda harakatlanish tartibi. Avtomagistral-transport vositalarining yuqori tezlik va xavfsiz harakatlanishlarini ta`minlovchi yo`l bo`lib, unga kirish 5.1, chiqish 5.2 belgilari bilan belgilanadi.

Avtomagistrallarda quyidagilar taqiqlanadi:

- piyodalar, uy hayvonlari, ot-aravalar, velosipedlar, mopedlar, traktorlar va o`ziyurar mashinalar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko`ra tezligi soatiga 40 kilometrdan kam bo`lgan transport vositalarining harakatlanishi;

- ruxsat etilgan to`la vazni 3,5 tonnadan ortiq, bo`lgan yuk avtomobillarining birinchi va ikkinchi bo`laklardan boshqa bo`laklarda harakatlanishi;



5.15 yoki 6.11 belgilari bilan belgilangan maxsus to`xtab turish maydonchalaridan boshqa joylarda to`xtash;

- ajratuvchi bo`lakning texnologik uzilish joylariga kirish va qayrilib olish;
- orqaga harakatlanish;
- transport vositasini o`rganish uchun boshqarish.

Avtomagistrallarda yuqori tezlikni ta`minlash uchun sekin yurib harakatga to`sqinlik qiladigan transport vositalarining harakatlanishi va transport oqimining tezligiga salbiy ta`sir etuvchi ba`zi manyovr va harakatlar taqiqlanadi.

Qatnov qismida majburiy to`xtaganda haydovchi transport vositasini Qoidalarning 9-bobi talablariga muvofik, belgilashi va bunday holatlar uchun mo`ljallangan bo`lakka (qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o`ng tomonga) olib chiqishning barcha choralarini ko`rishi kerak.

3. Turar joy dahalarida harakatlanish qoidalari. Aholi yashaydigan joy ko`cha, maydon, imorat, inshoot va shu kabilardan iborat bo`lib, bu joylarda kun davomida transport vositalari va piyodalarning uzluksiz harakatlanishi kuzatiladi.

Turarjoy dahalari aholining istiqomat qilishi uchun mo`ljallangan bo`lib, undagi harakatlanish ko`cha va maydonlardagi harakatlanishdan katta farq qiladi. Ko`pchilik holatlarda turarjoy dahalarida piyodalar uchun alohida trotuar bo`lmasdan, ularning harakatlanishi qatnov qismi bo`ylab belgilangan (piyoda va transport vositalariga yagona yo`lka).

Transport vositasining turarjoy dahasidagi yo`lkalardan tranzit harakatlanishi ko`zda tutilmagan, balki bu yo`lkalar istiqomat joyi bilan shahar ko`chalarini bog`lash uchun xizmat qiladi.

Turarjoy dahalarida istiqomat qiluvchilar ko`p harakatlanishi va har qadamda muyulishlardan bolalarning yugurib chiqib qolishlari mumkinligini hisobga olib, haydovchi xavfsizlikni ta`minlaydigan tezlik bilan harakatlanishi (YHQ. 12.1) hamda piyodalarga imtiyoz (YHQ. 19.1) berishi lozim. To`xtash va to`xtab turish uchun piyodalar transport vositalarining harakatlanishiga xalaqit bermaydigan joyni tanlashi kerak (YHQ- 14.4). Atrof-muhitni ishlab bo`lgan gazlar bilan bulg`atmaslik, istiqomat qiluvchilarga ziyon yetkazmaslik uchun to`xtab turganida avtomobil yurgizgichini ishdan to`xtatib, o`chirib qo`yish kerak.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:




1. Temir yo`l kesishmalari orqali harakatlanish qoidalarini o`rganish.
2. Avtomagistrallarda harakatlanish.


3. Turarjoy dahalarida harakatlanish.
4. Tik nishablik va balandliklarda harakatlanishni o`rganish.

V. Hisobot yozish:

1. Murakkab sharoitlarda harakatlanish qoidalariga ta`rif bering.
2. Tartibga solingan temir yo`l kesishmasi sxemasini chizish.
3. Berilgan rasmga ta`rif bering (6-jadval).
4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

6-jadval.

1.		
2.		
3.		
4.		



AMALIY MASHG`ULOT № 7
MAVZU: Transport vositalaridan foydalanish.

I. Ishning maqsadi: Transport vositalaridan foydalanishni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Transport vositalarini boshqarishni o`rgatish. Transport vositalarini boshqarishni dastlabki o`rgatish yopiq maydonchalarda yoki avtodromlarda o`tkazilishi kerak.

Transport vositalarini boshqarayotgan yosh, tajribasiz haydovchining rul chambaragini keskin burishi, ilashish (stsepleniye) tepkisini tez qo`yib yuborishi, tormoz tepkisini keskin bosishi yon-atrofdagi harakat ishtirokchilariga xavf tug`dirib, yo`l-transport hodisalarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun boshqarishni o`rganuvchi transport vositalarini ravon boshqarishning dastlabki ko`nikmalarini yopiq maydonlarda, boshqa yo`l ishtirokchilaridan ajratilgan joylarda o`rganishi kerak.



Yo`llarda boshqarishni o`rgatishga faqat haydovchi ustoz ishtirokida, o`rganuvchi dastlabki boshqaruv malakasini yetarlicha egallaganidan so`nggina ruxsat etiladi. O`rganuvchi Qoidalar talablarini bilishi va ularga amal qilishi shart.

Ko'pchilik o'rganuvchilar birinchi xavfli vaziyatda o'zini yo'qotib qo'yishadi bu esa transport vositalarini boshqaruvsiz qolib, avariya olib keladi. O'rganuvchida dastlabki ko'nikma, malaka bo'lgani bilan ustoz haydovchisiz avtomobilni boshqarib bo'lmaydi.

Boshqarishni o'rgatayotgan haydovchi ustoz o'rgatish xuquqini beruvchi xujjatga, shu toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomaga va bevosita 3 yillik haydovchilik faoliyatiga ega bo'lishi kerak.

Shaxsiy avtomobillarda boshqarishni o'rgatishda ham o'rgatuvchi haydovchilik guvohnomasidan tashqari, o'rgatish xuquqini beruvchi xujjatga ega bo'lishi kerak.

Haydovchilarni tayyorlash mashg'ulotlari o'quv yakunida avtomobil boshqarishni o'rganuvchi 18 yoshga, avtobus, tramvay va trolleybus boshqarishni o'rganuvchi esa 21 yoshga, mototsikl boshqarishni o'rganuvchi esa 16 yoshga to'lgan shaxslar bilan olib boriladi.

Boshqarishni o'rgatish uchun mo'ljallangan mexanik transport vositalari «Boshqarishni o'rgatish transport vositasi» taniqlik belgisi va haydovchi ustoz uchun orqani ko'rsatuvchi ko'zgu bilan jihozlanishi kerak. Bundan tashqari, boshqarishni o'rgatish transport vositalarida haydovchi ustoz uchun qo'shimcha ilashish (stsepleniye) va to'xtatish tepkilari ham bo'lishi kerak.

Yuqoridagi talablarga javob bersa, boshqarishini shaxsiy transport vositalarida ham o'rgatish mumkin.

Boshqarishni o'rgatish yo'nalishlari yo'l harakati xavfsizligi o'rganlari bilan kelishilishi shart. Boshqa yo'llarda boshqarishni o'rgatish taqiqlanadi.

Serqatnov yo'llarning tig'iz paytlarida boshqarishni o'rgatish tirbandliklarni vujudga keltirib, harakatlanishga to'sqinlik qilmasligi uchun boshqarishni o'rgatish yo'llari tasviri (sxemasi) YHXDX o'rganlari bilan kelishiladi.

2. Transport vositalarida odam tashish qoidalari. Odam tashish uchun avtobus, mikroavtobus, tramvay, trolleybus, yengil avtomobil kabilar ishlab chiqaruvchi korxonalar tarafidan mo'ljallangan bo'lib, harakatlanishdagi xavfsizliklari to'liq inobatga olingan. Ba'zi holatlarda yuk tashish uchun moslashtirilmagan avtomobillarda odam tashishni vaziyat taqozo qiladi. Bu juda ham mas'uliyatli bo'lib, harakatlanish xavfsizligi talablariga javob bera olishi kerak.

Yuk avtomobilining yukxonasida odam tashish «C» toifasidagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan, odamlar soni kabinadagilarni ham qo'shib hisoblaganda 8 nafardan ortiq, bo'lganda esa «C» va «D» toifasidagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan va shu toifadagi transport vositalaridan birini 3 yildan ortiq, boshqargan haydovchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.

2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.




IV. Amaliy qism:

1. Transport vositalarini boshqarishni o`rganish qoidalarini.
2. Transport vositalarida odam tashish qoidalarini.
3. Transport vositalarida yuk tashish qoidalarini.

V. Hisobot yozish:

1. Transport vositalaridan foydalanish qoidalariga ta`rif bering.
2. Yopiq maydon (Avtodrom) sxemasini chizish.
3. Berilgan rasimga ta`rif bering (7-jadval).
4. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

7-jadval.

1.		
2.		
3.		



AMALIY MASHG`ULOT № 8

MAVZU: Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar.

I. Ishning maqsadi: Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlarni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Tormoz tizimi nosozliklari bo`yicha taqiqlovchi shartlar. Tormoz tizimining tuzilishi o`zgartirilsa, ishlab chiqargan korxonaga talabiga mos kelmasa yoki transport vositasining shu turida ko`zda tutilmagan tormoz suyuqligi yoki boshqa qismlar qo`llanilsa.

Gidravlik tormoz uzatmasining zichligi (germetikligi) buzilgan bo`lsa.

Pnevmatik tormoz uzatmasining zichligi buzilishi natijasida havo siquvchi moslama (kompressor) ishlamay turganda va boshqaruv qismlari ulanmaganda - 30 daqiqada, ulanganida - 15 daqiqada tizimdagi havo bosimi 0,05 MP (0,5 kg/sm²)dan ko`p pasayishiga sabab bo`lsa.

Tormoz uzatmasidagi havo bosimini o`lchaydigan asbob (manometr) ishlamasa.

To`xtatib turish tormoz tizimi transport vositalarini quyidagi joylarda harakatsiz holatda ushlab tura olmasa:

- to`la vazndagi transport vositalarini 16 foizdan kam bo`lmagan qiyalikda;
- aslahalangan holatdagi yengil avtomobillar, ularning yuk tashishga moslashtirilgan turlari, shuningdek, avtobuslarni 23 foizdan kam bo`lmagan qiyalikda;
- aslahalangan holatdagi yuk avtomobillari va avtopoyezdlarni 31 foizdan kam bo`lmagan qiyalikda.

Izoh. To`xtatib turish tormoz tizimi sinovdan o`tkazilayotganda yurgizgich transmissiyadan ajratilgan bo`lishi kerak.

Qulflovchi moslama to'xtatib turish tormoz tizimining dastagi (richagi) ni ushlab tura olmasa.

Boshqaruv qurilmasi bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Boshqaruv qurilmasidagi lyuft (qismlar birikmasidagi yeyilish) yig'indisi quyidagi ko'rsatkichdan katta bo'lsa:

T/r	Transport vositasining turi	Erkin qismlar o'rtasidagi yoyilish yig'indisi, ko'pi bilan gradus hisobida
1	Yengil avtomobillar va ular asosida yaratilgan yuk avtomobillari xamda mikroavtobuslar	10
2	Avtobuslar	20
3	Yuk avtomobillari	25

Boshqaruv qurilmasidagi qismlar tuzilishida ko'zda tutilmagan sezilarli o'zgarishlar yoki transport vositasida yukxonasi (rama, kabina, shassi)ga nisbatan qo'zg'algan bo'lsa, qurilmadagi rezbali birikmalar tegishli ravishda mahkamlanmagan bo'lsa.

Boshqaruv qurilmasining tuzilishida ko'zda tutilmagan kuchaytirgich yoki mototsikllarda tebranishni pasaytiruvchi asbob (dempfer) nosoz bo'lsa yoki umuman bo'lmasa.

Boshqaruv qurilmasida qoldiq deformatsiya izlari, darz ketgan joylari va boshqa nuqsonlari bo'lgan qismlar o'ratilgan, shu transport vositasi turida ko'zda tutilmagan yoki ishlab chiqargan korxonaga talabiga mos kelmaydigan qismlar va suyuqliklar qo'llangan bo'lsa.

Tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishlash tartibi transport vositasining tuzilishi talabiga mos kelmasa.

Yorituvchi fara nurining yo'nalishi buzilgan bo'lsa.

Agar tashqi yoritgichlar va nur qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamayotgan yoki ifloslangan bo'lsa.

Yoritish asboblariidan nur sochuvchisi bo'lmasa yoxud nur sochuvchi va lampalar tegishli yorug'lik asboblari turiga mos bo'lmaganida foydalanilgan bo'lsa.

Oyna tozalagich bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Oyna tozalagich belgilangan tartibda ishlamayotgan bo'lsa.

Transport vositasining tarkibida ko'zda tutilgan oyna yuvgich ishlamayotgan bo'lsa.

Shinalar bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Yengil avtomobillar shinasi naqshlari izlarining qoldiq chuqurligi 1,6 mm, yuk avtomobillarini 1,0 mm, avtobuslarniki 2,0 mm, mototsikl va mopedlarniki 0,8 mm dan kam bo'lsa.

Izoh. Tirkamalar shinasi naqshlari izlarining qoldiq, chuqurligi shatakchi transport vositasi shinalari uchun belgilangan me'yorda bo'lishi kerak.

Shinalarning ba'zi joylari shikastlangan yoki boshqa nuqsonlarga (kesilgan, yorilgan) ega bo'lsa.

Qo'shaloq, shinalar orasiga xavf-xatar tug'diruvchi begona jismlar qisilib, tiqilib qolgan bo'lsa.

Shina o'lchamlari yoki unga cheklangan og'irlik transport vositasining turiga mos kelmasa.

Transport vositasining bitta o'qiga diagonal va radial, shuningdek, har xil naqshli shinalar o'ratilgan bo'lsa.

Shaharlararo qatnaydigan avtobusning oldingi o`qiga naqshi qayta tiklangan shina, boshqa o`qiga esa ikkinchi marta (2-darajali) ta`mirlash yo`li bilan tiklangan shinalar o`rnatilgan bo`lsa.

Yengil avtomobillar va avtobuslarning (shaharlararo qatnaydigan avtobuslardan tashqari) oldingi o`qiga ikkinchi marta (2-darajali) ta`mirlash yo`li bilan tiklangan shinalar o`rnatilgan bo`lsa.



Yurgizgich (motor) bo`yicha taqiqlovchi shartlar. Ishlab chiqqan gazlar tarkibida zararli moddalar yoki tutash darajasi belgilangan me`yordan ortiq bo`lsa.

Yonilg`i uzatish tizimi zich (germetik) bo`lmasa.

Radio to`lqinlaridagi shovqinni so`ndiruvchi moslamalar bo`lmasa.

Ishlab chiqarilgan gazlarni chiqarish tizimi buzuvchi bo`lsa.

YHX organlari ruxsatisiz yurgizgich tuzilishiga o`zgartirish kiritilgan, boshqa turdagi yonilg`ida ishlatish uchun qo`shimcha moslama va jihozlar o`rnatilgan bo`lsa.



Transport vositasi tuzilishining bo`lak qismlari. Transport vositasining tuzilishida ko`zda tutilgan orqa tomonni ko`rsatuvchi ko`zgu bo`lmasa.

Tovush moslamasi (signal) ishlamasa.

Transport vositasiga tevarak-atrof ko`rinishini cheklaydigan qo`shimcha narsalar, ko`zgusimon, shuningdek, tegishli davlat standartlarida belgilangan me`yorlarni buzgan holda tayyorlangan, rangi o`zgartirilgan (qoraytirilgan) oynalar o`rnatilgan bo`lsa.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Tormoz tizimidagi nosozlik bo`yicha taqiqlovchi shartlar.
2. Rul boshqarmasidagi nosozlik bo`yicha taqiqlovchi shartlar.
3. Tashqi yoritgichlar bo`yicha taqiqlovchi shartlar.
4. Shinalar bo`yicha taqiqlovchi shartlar.
5. Yurgizgichdagi nosozlik tufayli taqiqlovchi shartlar.

V. Hisobot yozish:

1. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlarga ta`rif bering.
2. Berilgan jadvalni to`ldiring (8-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

8-jadval.

T/r	Transport vositasi turi	Tormoz yo`li (ko`pi bilan) metr hisobida			
		1981 yil 1.01 dan ishlab chiqarila boshlagan		1981 yil 1.01 dan oldin ishlab chiqarila boshlagan	
		Aslahalangan xolda	To`la vaznda	Aslahlangan xolda	To`la vaznda
1	Yengil avtomobillar va ularning yuk tashishga moslashtirilgan turlari	12,2	12,9	14,5	16,2
	ular shatakka olganda				
2	Avtobuslar:				
	to`la vazni 5 tonna va undan kam bo`lgan				
	to`la vazni 5 tonnadan ortiq, bo`lgan				
3	Yuk avtomobillari:				
	to`la vazni 3,5 tonna va undan kam bo`lgan				
	to`la vazni 3,5 tonnadan 12 tonnagacha va 12 tonna bo`lgan				
	to`la vazni 12 tonnadan ortiq bo`lgan				
4	Avtopoyezdlar shatakchi transport vositasi bilan:				
	to`la vazni 3,5 tonna va undan kam bo`lgan				

	to`la vazni 3,5 tonnadan 12 tonnagacha va 12 tonna bo`lgan				
	to`la vazni 12 tonnadan ortiq bo`lgan				
5	Ikki g`ildirakli mototsikl va mopedlar				
6	Kajavali mototsikllar				

AMALIY MASHG`ULOT № 9

MAVZU: YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko`rsatish.

I. Ishning maqsadi: YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar:

Tibbiy yordam ko`rsatishning bosqichlari. Yo`l-transport hodisalari jarayonida ro`y berayotgan shikastlanishlar katta ijtimoiy muammolarga aylanmoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning ko`pchiligi avtoavariyalarning epidemiyasiga yo`liqgan bo`lib, undan katta zarar ko`rsatmoqda.

Tajriba shuni ko`rsatadiki, yo`l-transport hodisalariga uchraganlarga birinchi daqiqalarda tibbiy yordam ko`rsatish ko`p jihatdan ular hayotini saqlab qolishga bog`liq bo`ladi. Yapon mutaxassislarining fikricha, shikastlangan kishi klinik o`lim holatida 3 daqiqagacha bo`lsa, hayotni saqlab qolish ehtimoli 75% tashkil qiladi. Bu vaqt 5 daqiqaga cho`zilsa, hayotni saqlab qolish ehtimoli 25 % gacha kamayadi. Agar 10 daqiqadan ko`p vaqt o`tsa, odamni hayotini saqlab qolib bo`lmaydi.



N.V.Sklifosovskiy nomidagi tez yordam ilmiy tadqiqot institutning ma'lumotlariga ko'ra, yo'l-transport hodisalarida o'lganlarning taxminan 17% ning sababi qon oqish, nafas bug'ilishi va boshqa lozim bo'lgan tibbiy tez yordam ko'rsatilmagan holatlar tufayli ro'y bergan. Yo'l-transport hodisalarida og'ir shikastlanganlarning 60% fojea joyiga, 8 % davolash muassasasi yo'lida o'limi aniqlangan.

Yo'l-transport hodisasiga jabrlanganlarning shikastlanish darajasiga qarab jinoyat ko'rib chiqiladi. YTH oqibatida jabrlangan shaxs o'lganda haydovchiga juda katta javobgarlik yuklatiladi. YTH da o'lganligini aniqlash uchun, xodisadan keyin odam o'lgangacha o'tgan muddat bilan aniqlanadi. Turli mamlakatlarda bu muddat turlicha belgilangan. Masalan: Polsha va Vengriyada bu muddat 2 kun, Avstriyada 3 kun, Frantsiyada 6 kun, Italiya, Rossiya va O'zbekistonda 7 kun deb belgilangan. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining belgilashicha, avariya dan keyingi 30 kun orasida o'lganlar, YTH oqibatida o'lganlar hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik kodeksiga asosan og'ir tan jarohati, uncha og'ir bo'lmagan va yengil jarohatlarga bo'linadi. YTH da haydovchining javobgarligi ana shu jarohatlanish darajasi bilan belgilanadi.

Og'ir tan jarohatlariga, hayot uchun xavfli bo'lgan, eshitish, ko'rish gapirish, qo'li, oyog'ini yo'qotgan, sog'ligi izdan chiqqan, mehnat qobiliyatini 35% ga yo'qotganlar hisoblanadi.

Uncha og'ir bo'lmagan tan jarohatlariga hayot uchun uncha xavfli bo'lmagan, tan a'zolari va funksiyalari yo'qolmagan, sog'ligi 4 xaftadan ko'proq muddatda izdan chiqqan, mehnat qobiliyatini 15-35% gacha yo'qotganlar hisoblanadi.

Engil tan jarohatlariga sog'ligini yo'qotib, 28 kungacha davolangan va mehnat qobiliyatini 15% gacha yo'qotganlar kiradi.

Barcha transport vositalarining haydovchilari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Har bir haydovchi haydovchilik guvohnomasi olishdan oldin va 6,1 jadvalda keltirilgan muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Transport vositalarining haydovchilarini dastlabki tarzda majburiy va keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'riklardan, shu jumladan, yo'lga chiqish oldidan va yo'ldan qaytgandan keyin tibbiy ko'riklarda o'tish «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi» qonunning 17-moddasida ham keltirilgan.

Agar davlat yo`l harakati xavfsizligi va transport korxonalaridagi mansabdor shaxslarda haydovchining sog`ligiga nisbatan shubha bo`lsa, unga belgilangan muddatlardan oldin tibbiy ko`rikdan qayta o`tish uchun yo`llanma berilishi mumkin. Haydovchilarni tibbiy ko`rikdan qayta o`tish haqidagi qaror DYHXX boshqarmasiga bo`lim va bo`linmalari boshliqlari va ularning o`rinbosarlari, ular bo`lmaganda esa ichki ishlar bo`limi boshlig`i va ularning o`rinbosarlari tomonidan qabul qilinadi.

Jarohlarda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko`rsatish. Inson organizmi har xil jarohatlar olishi natijasida faqat 500 millilitr qon yo`qotishi hayot uchun xavfsiz hisoblanadi.

Agar kishi 1000 millilitr qon yo`qotsa, hayot uchun xavf tug`iladi. Undan ko`p qon yo`qotgan taqdirda esa jjabrlanuvchini o`linga olib keladigan xavf tug`iladi.

Agar jabrlanuvchi 2000 millilitr qon yo`qotsa, uning hayotini saqlab qolish uchun darxol qon berib, organizmni kerakli qon bilan tahminlash zarur.

Agar jaroxat arterial, yirik qon tomirida bo`lsa, kishi bir necha daqiqadan keyin o`lishi mumkin. Shuning uchun har qanday qon ketishini darxol to`xtatish kerak.

Yosh bolalar, keksa, 70-75 yoshdagi kishilar kamroq qon yo`qotsalar ham, ular uchun bu xavfli hisoblanadi.

Jgut qo`yish qoidalari.

Qo`l-oyoqlar jarohatlanishdagi kuchli qon oqishini to`xtatish uchun jgut yoki buragichdan foydalaniladi. Ular qo`yilgan vaqti maxsus yozishmada ko`rsatilgan holatda, jarohatdan yuqoriroqqa yelkaga yoki songa bevosita kiyim bosh yoki maxsus yumshoq boylagich ustidan 1.5 soat muddatga qo`yiladi.


Jarohatning belgilari.

1. Teri qoplamasi yoki shilliq pardalarning yaxlitligini buzilishi
2. Qon oqishi
3. Og`riq

Aspetik bog`lamani bog`lash qoidasi.

Jarohatni hech qanday suyuqliklar bilan yuvish, unga qo`l tegizish, undagi kiyim parchalarini, begona jismlarni va boshqa narsalarni olish mumkin emas.

Jarohatning chetlari va uning atrofidagi teri yuzasiga yod surtilgach, bog`lash uchun shaxsiy paketdan foydalanib jarohatga aseptik bog`lamani boylash, jarohatlangan narsa katta bo`lsa, asosiy aseptik bog`lamani bog`lash kerak.



III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoproyektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.





IV. Amaliy qism:

1. YTXga ta'rif bering.
2. Tibbiy yordam ko`rsatish bosqichlarini tushuntiring.
3. Jarohatlarda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko`rsatish.
4. Jgut qo`yish qoidalari.
5. Nafas olish va yurak urishi to`xtaganda birinchi yordam ko`rsatish.
6. Bosh miya shikastlanganda birinchi yordam ko`rsatish.
7. Suyaklarning sinishi va chiqishi hollarida birinchi tibbiy yordam ko`rsatish.

V. Hisobot yozish:

1. YTXda jaroxatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko`rsatish bosqichlarini izohlang.
2. Berilgan rasmlarni izohlang (9-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma'lumotlarini olish.

9-Jadval.

1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

AMALIY MASHG'ULOT № 10

Mavzu: YHQB haydovchi va mansabdor shaxslarning javobgarligi.

I. Ishning maqsadi: YHQB haydovchi va mansabdor shaxslarning javobgarligini o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Huquqiy javobgarlik tushunchasi avtotransportda harakat xavfsizligini ta'minlash muhim va murakkab vazifa bo`lishi bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Bu vazifani to`g`ri hal qilish haydovchilarga bog`liqdir.

Amaliyotda ko`pgina yo`l-transport hodisalari sodir bo`lishiga haydovchilar o`z vazifalariga va fuqorolik burchlariga e`tiborsizlik bilan qaraganlari va tartibga rioya etmasliklari sabab bo`ladi.

Avtotransport ishtirokida sodir bo`lgan halokatlar oqibati jamiyatga katta ma'naviy va moddiy zarar yetkazadi. Bu holatlar ko`pincha davlat me'yoriy talablarining buzilishi bilan sodir bo`ladi.

Jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun avtotransport harakati qatnashchilariga yo`l qo`ygan qoidabuzarliklari uchun ta'sir etish choralari qo`llaniladi.

Qoidabuzarliklarga yo`l qo`ygan shaxslar qonun bilan belgilab qo`yilgan tartibga muvofiq jazolanadilar.

Haydovchi tomonidan yo`l qo`yilgan qoidabuzarlik tavsiflariga muvofiq to`rtta javobgarlik turi mavjud:

1. axloqiy
2. moddiy
3. ma'muriy
4. jinoiy

Axloqiy javobgarlik. Haydovchi mehnat shartnomasida ko`rsatilgan vazifani bajarmagan, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmagan, xizmat burchini o`tayotgan paytda ATXga ziyon keltirgan bo`lsa, axloqiy javobgarlikka tortiladi. Mehnat intizomini buzganligi uchun ATX ma'muriyati haydovchini 1) ogohlantirishi, 2) hayfsan e`lon qilishi, 3) qattiq hayfsan berishi, 4) maoshi past ishga o`tkazishi, 5) ishdan bo`shatishi mumkin.

Moddiy javobgarlik. Haydovchining aybi bilan ATXga ziyon keltirilgan bo`lsa, u bu ziyonni to`lashi lozim. To`lov miqdori haydovchi o`rtacha maoshining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak.

Ma'muriy javobgarlik. Avtotransportda yo`l qo`yilgan qoidabuzarliklar O`zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksida belgilangan holatlar bo`yicha javobgarlikka tortiladi.

Avtotransport bilan bog`liq bo`lgan qoidabuzarliklarning turlari 121-131, 133-143, 147 va 148 moddalarda o`z aksini topgan:

Jinoiy javobgarlik. Jinoiy javobgarlik deb davlat oldida sodir etgan jinoiy ishi uchun javob berishiga aytiladi.

Jinoyat - biron bir harakat natijasida jamoatchilikka ziyon yetkazish va fuqarolarning qonun bilan belgilangan haq huquqlarni poymol etishdir.

Jinoiy javobgarlik uchun quyidagicha jazo turlari belgilangan: ozodlikdan mahrum etish, ozodlikdan mahrum etilmagan holda ahloq tuzatish ishlari, ba'zi bir turdagi mehnat faoliyatini cheklash, egallab turgan lavozimidan bo'shatish, jamoat ta'sirini ko'rsatish, jarima solish.

Jinoiy javobgarlikka faqat sud qaroriga muvofiq, qonunda ko'rsatilgan tartibda tortiladi.

Avtotransportdagi jinoiy javobgarliklarga huquqbuzarliklar, og'ir oqibatlariga olib kelgan hollar (insonlar jarohat olganda va halok bo'lganda, katta miqdordagi moddiy zarar yetkazilganda transport vositalarini olib qochganda va boshqalar) kiradi.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko'rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Haydovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik yuzasidan axloqiy javobgarlik.
2. Haydovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik yuzasidan moddiy javobgarlik.
3. Haydovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik yuzasidan ma'muriy javobgarlik.
4. Haydovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik yuzasidan jinoiy javobgarlik.

V. Hisobot yozish:

1. YHQB haydovchi va mansabdor shaxslarning javobgarligi ta'rifi.
2. Berilgan rasmlarni izohlang (10-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko'rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma'lumotlarini olish.

10-jadval.

№	Kodeks va moddalar	Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar miqdorini yozing.
1.	O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 128 ³ -moddasi	
2.	O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 125-moddasi	
3.	O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 127-moddasi	

4.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 128 ¹ -moddasi	
5.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 128 ² -moddasi	
6.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 131-moddasi	
7.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 136-moddasi	
8.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 135-moddasi	
9.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 125-moddasi	
10.	O`zbekiston Respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 126-moddasi	



AMALIY MASHG'ULOT № 11

MAVZU: Haydovchi o`rindig`ini sozlash boshqarish tizimlaridan to`g`ri foydalanish.

I. Ishning maqsadi: Haydovchi o`rindig`ini sozlash boshqarish tizimlaridan to`g`ri foydalanishni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Haydovchi ish o`rnida shunday joylanishi kerakki, u barcha boshqarish organlarini bemalol boshqara bilsin, yo`lni yaxshi ko`ra olsun va tezda charchamasin. Haydovchini ish o`rnida to`g`ri joylashgani quyidagi rasmda ko`rsatilgan. Orqasi suyanchiqda vertikal xolatda tekis tegib turishi rul chambaragini to`tib turgan qo`llari biroz tirsakdan egilgan, qo`l barmoqlari rul gardishini tashqi tomondan qamrab olgan bo`lishi kerak.

Oyoqlar to`g`ri joylashganida tizza osti bo`shliq o`rindiq pastki chetidan 3-5 sm masofada oyoq biroz oldinga cho`zilgan va hech qachon rul chambaragiga tegmasligi kerak. Rasmda ko`rsatilganidek haydovchining o`z ish o`rnida joylashuvi uch tayanch nuqtasi bilan taminlanadi. 1-orqa II-bel III- oyoq va haydovchi ko`zini yo`nalishi oldinda uzoqqa qaratgan bo`lishi kerak. Haydovchini ish urnida to`g`ri joylashuvini taminlash Quyidagi rasmda ko`rsatilgan.



2-a. rasmda o`rindiqni oldinga va orqaga surib oyoqlarning rasmda ko`rsatilgan xolatiga keltirishi zarur.


2-b. rasmda haydovchi o`rindiq suyanchig`ini qanday sozlab orqa va belini tekis tegib turishini ta`minlash xolati ko`rsatilgan.

2-v. rasmda haydovchi o`z o`rnida to`g`ri joylashganini tekshirish ko`rsatilgan, ya`ni u gavdasini suyanchiqdan uzmasdan o`zidan eng uzoqda joylashgan uzatmalarni almashtirish dastagini bemalol ishga solishi va bunda chap qo`li rul chambaragida cho`zilgan bo`lishi kerak.

2-g. rasmda boshtirgagichni to`g`ri o`rnatish xolati ko`rsatilgan, bunda boshtirgagichning yuqori qismi haydovchi qulog`ini yuqori qismi bilan barobar bo`liishikerak.


2-d. rasmda haydovchi rulda to`g`ri joylashganda xavfsizlik tasma sini sozlash xolati ko`rsatilgan. Buni tekshirishda o`ng qo`l kafti ko`krak qafasi maydonida tasma ostiga zo`rg`a kirishi kerak.

Quyidagi rasmda tashqi va ichki ko`zgularni to`g`ri o`rnatish tartibi ko`rsatilgan.



Chap tashqi ko`zgu to`g`ri o`rnatilganda, uning pastki o`ng burchagida avtomobil g`ildiragi va yukxonaning oxirgi qismi ko`rinishi kerak. O`ng tashqi ko`zguni o`rnatish ham shunday bo`ladi. Ichki ko`zgu avtomobilni orqasidagi harakat bo`laklarini va yo`l chetlarini ko`rsatishi kerak.

Haydovchini to`g`ri joylanishuvi uning oyoq kaftidan to`g`ri foydalanish imkonini beradi. Quyidagi rasmda ko`rsatilganidek oyoq kaftini shartli uch qismga bo`lish mumkin.



a) oyoq kafti sxemasi.

b) ilashish mexanizmi va tormoz tepkisini bosish.


v) yoqilg`i uzatish tepkisini bosish.

I-qism oldingi - sezgir va egiluvchan, bu qism bilan yoqilg`i uzatishni boshqarish tepkisini ishlatish qulay bunda oyoqni poshna qismi albatta kabina tagligiga suyanishi kerak.

II-qism o`rta - kuchli va egiluvchan qismi, bu qism bilan ilashish mexanizmi va tormoz tepkilari ishga solinadi.


III-qism - poshna eng kuchli ammo sezgir emas, bu qism bilan ishlash qulay emas, shuning uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Chap oyoq bilan ilashish mexanizmi tepkisi o`ng oyoq bilan tormoz va yoqilg`i uzatish tepkilari boshqariladi. Uzatmalarni almashtirish dastasini tutishda qo`l barmoqlari xolati quyidagi rasmda ko`rsatilgan. Bunda gavda xolati o`zgarmasligi kerak.



Rul chambaragida qo`l biroz tirsakdan egilgan xolatda chambarak gardishini pastidan to`rt va ustidan bosh barmoq bilan tutish kerak.

Chap qo`lni harakatlanish maydoni soat raqamlarining 8-10, o`ng qo`lniki 2-4 raqamiga to`g`ri kelishi kerak.



III. Jihozlar va adabiyotlar:






1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Haydovchi o`rindig`ini sozlash.
2. Tashqi va ichki ko`zgularni to`g`ri o`rnatish tartibi.
3. Haydovchi oyoq kaftining sxemasi va ilashish muftasi tepkisini to`g`ri boshqarish.
4. Haydovchi tormoz va yoqilg`i uzatish tepkisini to`g`ri bosish.

V. Hisobot yozish:

1. Haydovchi o`rindig`ini sozlashga ta`rif bering.
2. Berilgan rasmlarni izohlang (11-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.


№	Rasmlar	Berilgan rasmga ta'rif bering
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

AMALIY MASHG'ULOT № 12

MAVZU: Yo'llarda harakatlanish va harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi faktorlar.

I. Ishning maqsadi: Yo'llarda harakatlanish va harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi faktorlarni o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Avtomobilga harakat vaqtida quyidagi kuchlar ta'sir etadi: tortish kuchi, harakatga qarshilik kuchlar va inertsiya kuchi. Inertsiya kuchi harakat rejimiga qarab oldinga, orqaga va ko'ndalang yo'nalishga qaratilgan bo'lishi mumkin.



Harakatga qarshilik kuchlariga: g'ildirakning g'ildirashiga qarshilik kuchi - R_f , avtomobilga havoning qarshilik kuchi - R_w , balandlikka chiqishga qarshilik kuchi - R_i , inertsiya kuchi - R_g . Qarshilik kuchlarini yengish uchun avtomobilning dvigateli ishlab chiqargan quvvat sarflanadi. Dvigatelda xosil bo'lgan burovchi moment transmissiya orqali yetakchi g'ildiraklarga uzatiladi. G'ildiraklar aylanib yo'l qoplamasiga ta'sir etuvchi aylanma kuch xosil qiladi. Yo'lning teng aks ta'sir etuvchi kuchi avtomobilni harakatlanishiga olib keladi. Avtomobilga ta'sir etuvchi barcha kuchlarni quyidagi ifoda bilan ko'rsatish mumkin:

$$P_T = P_f + P_w + P_i + P_g.$$

bunda R_t - tortish kuchi
 R_f - g'ildirashga qarshilik kuchi
 R_i - balandlikka chiqishga qarshilik kuchi
 R_w - havoning qarshilik kuchi ,
 R_g - inertsiya kuchi

Bu ifoda tortish balansi formulasi yoki kuchlar muvozanati tenglamasi deb nomlanadi va tortish kuchini qanday taqsimlanishini aniqlaydi.

G'ildirakning g'ildirashiga qarshilik kuchi shinning yo'l qoplamasi bilan ta'siri natijasida xosil bo'ladi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

bunda R_f - g'ildirashga qarshilik kuchi
 G_a - avtomobilning og'irligi
 f - g'ildirakning g'ildirashiga qarshilik koeffitsienti
 α - yo'lning bo'ylama qiyaligi, grad.

G'ildirakning g'ildirashiga qarshilik koeffitsienti yo'lining qarshilik kuchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni xisobga oladi va quyidagi qiymatlarga teng:

yaxshi xolatdagi asfalt	- 0,015-0,018
qoniqarli xolatdagi asfalt	- 0,018-0,020
shag'alli yo'l	- 0,020 – 0,025
tosh terilgan yo'l	- 0, 023– 0, 030
gruntli yo'l	- 0, 025 - 0,030
quruq qumli yo'l	- 0, 100 – 0,300
muz	- 0,018-0,020

Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi. Avtomobil yo'llari gorizontal, nishablik va balandliklardan iborat. Gorizontal yo'llar kam uchraydi. Yo'lining nishabligi uning burchagi α yoki i bilan tavsiflanadi

$$i = \frac{H}{B} = \operatorname{tg} \alpha$$

bunda H - nishablikning balandligi, m


V - nishablikning uzunligi, m

Kichik nishabliklarda $i = \operatorname{tg} \alpha = \sin \alpha$ teng deb olinishi mumkin.

Nishablikka harakatlanayotgan avtomobilning og'irlik kuchi G ni 2 ta tashkil etuvchi: nishablikka parallel $G \sin \alpha$ kuchi va nishablikka perpendikulyar $G \cos \alpha$ kuchlarga ajratamiz.

$G \sin \alpha$ kuchini R_i ifoda bilan belgilaymiz, bu kuch balandlikka chiqishga qarshilik kuchidir.

$$R_i = G \sin \alpha = G i$$



Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi

bunda $R_f = G \sin \alpha = G i$

Avtomobil nishablikka harakatlanganda bu kuch teskari ta'sir etadi.

Zamonaviy avtomobil yo'llarining ko'ndalang profilidagi nishabliklar uzuluksiz o'zgarib borishi mumkin. Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi ham o'zgarib boradi.



Havoning qarshilik kuchi. Avtomobilning harakati vaqtida unga xavoning qarshilik kuchi ta'sir etadi. Bu kuch quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$R_w = K F V_a^2$$

bunda K - xavo qarshiligini yengish koeffitsienti

F – avtomobilning old yuzasi, m^2

V_a – avtomobilning tezligi, m/s



Inertsiya kuchi. Avtomobilga harakat vaqtida inertsiya kuchlari ta'sir etadi. Avtomobilning tezligini o'zgarishi inertsiya kuchini xosil qiladi. Inertsiya kuchi avtomobilning massasiga bog'liq. Inertsiya kuchi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$R_g = \frac{Ga}{g} j$$

bunda g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2

j - avtomobilning tezlanishi, m/s^2

G'ildirak shinasining yo'l qoplamasi bilan tishlashish kuchi.

Avtomobilning harakatlanishi uchun yetakchi g'ildirak bilan yo'l qoplamasi tishlashishi natijasida tishlashish kuchi paydo bo'ladi.

Tishlashish kuchi avtomobil massasiga, shina va yo'lning xolatiga bog'liq.

$$R_{sts} = Ga \varphi$$

bunda R_{sts} - tishlashish kuchi

Ga - avtomobilning og'irligi

φ - tishlashish koeffitsienti

Tishlashish koeffitsienti shinaga, yo`l qoplamasiga va ularning xolatiga bog`liq.



III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi kuchlar.
2. G`ildirakning g`ildirashiga qarshilik kuchi.
3. Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi.
4. Havoning qarshilik kuchi.
5. Inertsiya kuchi.
6. G`ildirak shinasining yo`l qoplamasi bilan tishlashish kuchi.

V. Hisobot yozish:

1. Haydovchi o`rindig`ini sozlashga ta'rif bering.
2. Berilgan rasmlarni izohlang (12-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma'lumotlarini olish.

12-jadval.

№	Rasmlar	Berilgan rasimga ta'rif bering
1.		

2.		
3.		
4.	<p>ТЕКИС ҲАРАКАТДА</p>	
5.	<p>БУРИЛИШДАГИ ТАЪСИР КУЧЛАР</p>	


AMALIY MASHG'ULOT № 13

MAVZU: Haydovchining ko`rish sezgirligi, axborotlarni tahlil qilish.

I. Ishning maqsadi: Haydovchining ko`rish sezgirligi, axborotlarni tahlil qilishni o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Haydovchi o`zining ish faoliyatida muntazam ravishda ko`rish, eshitish va boshqa a`zolari orqali axborot olib, uni qayta ishlab, transport vositasini muhitda boshqaradi.

Ayrim hollarda haydovchi katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlashga ulgurmay qolishi yoki kerakli axborotlarni etarli darajada o`z vaqtida ololmaganligi sababli, u transport vositasining harakat yo`nalishini o`zgartira olmaganligi yoki to`xtata olmasligi oqibatida YTH vujudga kelishi mumkin. Bunday holat kuzatilmasligi uchun haydovchiga o`z vaqtida yo`l holatini va yo`l harakati qatnashchilari harakatining o`zgarishi to`g`risida kerakli miqdorda sifatli axborot etkazib berilishi darkor.



Haydovchi harakatlanishi jarayonida o`zi boshqarayotgan transport vositasidan ichki va bir vaqtning o`zida, ko`rish maydonidagi boshqa transport vositalaridan tashqi ma lumotlar oladi. Transport vositalarining tashqi vizual (ko`rib aniqlash) axborotchanganligi sust va faol qismga bo`linadi.

Sust axborotchanchlik - bu transport vositasining energiya ketkazmasdan axborot berish potentsial qobiliyati, unga transport vositasining formasi, o`lchamlari, kuzovining rangi, nur (yorug`lik) qaytaruvchi quriamalar kiradi.

Faol axborotlanganlik - bu transport vositasining energiya sarflab axborot berish potentsial qobiliyati. Unga yoritish tizimi, nur va tovush signallari kiradi. Haydovchi transport vositasini boshqarish uchun eng katta 90% dan ko`p axborotni ko`rish sezgisi orqali oladi. Shuning uchun transport vositasidagi yoritish tizimi

harakat xavfsizligini sutkaning qorong`i vaqtida va noqulay ob-havo sharoitida ta`minlashda asosiy vosita bo`lib hisoblanadi.

Hozirda zamonaviy avtomobillar yaqinni, uzoqni ko`rish uchun, shuningdek, tumanda ko`rishni yaxshilash uchun orqani yoritish faralari bilan jihozlanadi. Transport vositasining va harakat qatnashchilarining xavfsizligini saqlashda tashqi signal beruvchi quriamalarning o`rni katta. Tashqi yorug`lik signallarini beruvchi zaruriy minimal quriamalarning komplekti quyidagilardan iborat: tormoz signali, gabarit signali (oldi va orqa), harakat yo`nalishining o`zgarishini ko`rsatuvchi signal, nomer yoritgich, avtopoezd yoritgichi va maxsus yoritgich belgilar.

Transport vositasining ichki axborotchanligi deb signallar, boshqaruv tizimi va asboblarning potentsial qobiliyati orqali haydovchilarga transport vositasi agregatlarini, har xil tizimlarini, harakat rejimining holati to`g`risidagi axborotlarni uzluksiz ravishda etkazib berish tushuniladi. Avtomobilning ichki axborotchanligini ta`minlashda asboblarning taxtachasi xizmat qiladi, undan yorug`lik va tovush signallari tarqatiladi.

Transport vositasidagi ko`rish qobiliyati (Obzornost) deb haydovchiga yo`l-transport vaziyatining ko`rinishini ta`minlab berish hususiyatlari tushuniladi. Transport vositasidagi ko`rinish oldingi ko`rish oynasining katta-kichikligi, kuzov tayanchlarining joylashishi, haydovchi ish joyining oynaga nisbatan joylashishi, oyna tozalagich shetkaning o`lchamlari, oynani isitish va havo purkagich tizimi, orqa ko`rinishni ko`rish uchun o`rnatilgan ko`zgu o`lchamlarining o`zgarishiga bog`liq bo`ladi.

III. Jihozlar va adabiyotlar:


1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Haydovchining ko`rish sezgirligi.
2. Axborotlarni taxlil qilishi (Faol axborotlanganlik, sust axborotlanganlik).
3. Transport vositasining ichki axborotchanligi.

V. Hisobot yozish:

1. Haydovchining ko`rish sezgirligi va axborotlarni taxlil qilishiga ta`rif bering.
2. Berilgan rasmlarni izohlang (13-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

№	Rasmlar	Berilgan rasimga ta'rif bering
1.	 <p>Таҳлилагичлар билан вазиятни идрок этиш</p> <p>Кўриш эҳтиши хил бўлиши сезилиши ИДРОК ЭТИШИ</p> <p>Қарорга келиши</p> <p>Ҳаркатланиш маркази</p>	
2.	 <p>Иккала кўзнинг кўриш майдони</p> <p>Ўнг кўзнинг кўриш майдони</p> <p>Чап кўзнинг кўриш майдони</p> <p>Иккала кўзнинг кўриш майдони</p>	

AMALIY MASHG'ULOT № 14

MAVZU: Avtomobilni boshqarishda haydovchining kasbiy mahorati.


I. Ishning maqsadi: Avtomobilni boshqarishda haydovchining kasbiy mahoratini o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Boshqaruvchanlik deganda, avtomobilni haydovchi bergan yo`nalish bo`yicha harakatlanishni tag`minlash xususiyatiga aytiladi. Avtomobilni boshqa foydalanish xususiyatlaridan ko`ra ko`proq, boshqaruvchanlik, xaydovchi bilan bog`liq. Boshqariluvchanlikni yaxshi ta`minlash uchun, avtomobilning konstruktiv ko`rsatgichlari, xaydovchining psixofiziologik tavsifnomasiga mos kelishi kerak.

Avtomobilni boshqariluvchanligi bir necha ko`rsatgichlar bilan baholanadi. Bulardan asosiysi: avtomobilni aylanma harakatlanishida, egrilik traektoriyasining chekka qiymati, egrilik trayektoriyasi o`zgarishida tezlik qiymatining chekka miqdori, avtomobilni boshqarishda sarflanadigan energiya miqdori, berilgan harakat yo`nalishidan avtomobilni o`z-o`zidan chetga chiqish qiymati miqdoridir.

Boshqariladigan g`ildiraklar yo`l notekisliklari ta`siridan doimiy ravishda o`zining neytral xolatidan chetga chiqib turadi. Boshqariladigan g`ildirakning neytral xolatni saqlashi va burilishdan keyin o`z neytral xolatiga qaytish kobilayatiga, boshqariladigan g`ildiraklar stabilizatsiyasi deyiladi. Boshqariladigan g`ildiraklarni og`irlik va tezlik stabilizatsiya turlariga farqlanadi.

Og`irlik stabilizatsiyasi, oldingi osmaning shkvorenini ko`ndalang qiyaligi bilan ta`minlanadi. G`ildirak burilganda, shkvoren ko`ndalang qiyaligi sababli avtomobil ko`tariladi, lekin u o`z og`irligi bilan burilgan g`ildirakni avvalgi xolatiga qaytishga harakat qiladi. (*quyidagi rasm a.*)



Tezlik stabilizatsiyasi momenti, shkvorenning bo`ylama qiyaligi natijasida vujudga keladi. Shkvoren shunday joylashganki uning yuqori uchi orqaga, pastki uchi esa oldinga yo`nalgan. Shkvoren o`qi yo`lni, shina bilan yo`l kontakti oldidan kesib o`tadi. Shuning uchun avtomobil harakatlanish paytida, dumalash qarshilik kuchi, shkvoren o`qiga nisbatan stabilizatsiya momentini vujudga keltiradi (*yuqoridagi rasm b.*).

Rul mexanizmi va rul boshqarmasi texnik soz bo`lgan avtomobil burilganidan keyin boshqariladigan g`ildiraklar va rul chamberagi, xaydovchi ko`magisiz neytral xolatni egallashi kerak.

Rul mexanizmida chervyak rolikka nisbatan biroz qiyalik bilan joylashgan. Shu sababdan o`rta xolatda chervyak va rolik oralig`i eng kam va nolga yaqin, rolik biror tomonga siljiganda oraliq ko`payadi. Shuning uchun g`ildiraklar neytral xolatda bo`lganda, rul mexanizmida ishkalanish yuqoribo`ladi, bu esa gidiraklar stabilizatsiyasiga ko`maklashadi.

Haydovchining kasbiy mahorati. Shaxs - bu mehnat faoliyatiga layoqatli, gapirishga qodir ongli inson, oddiy qilib aytganda u ong egasi.

Shaxsning barcha xususiyat va vazifalari tug`ma bo`lib, o`qish va amaliy faoliyat ko`rsatish jarayonida ro`yobga chiqadi va shakillanadi. Psixologiyada shaxsni bir butun yaxlit holda o`rganish asosiy maqsad bo`lib, shu asosda uning turli yo`nalishdagi faoliyati ko`rib chiqiladi.

Haydovchi shaxs sifatida hunar - texnika bilimlarini egallash jarayonida shakillanadi. Bu mehnat tarbiyasi shaxs shakillanishining asosiy omili hisoblanadi. Har bir shaxsning psixologik strukturasi mavjud. Hamma odamlar uchun umumiy bo`lgan shaxs tilini aniqlaydigon psihologik struktura to`rt tipdagi struktura qismlaridan iborat.

Yo`nalganlik - bu tarbiyalash jarayonida shakillanadigon dunyo qarash intilish, qiziqish, ishonch, yuksak orzu. Siyosiy - axloqiy, kasbiy, maishiy yo`nalganlik turlariga bo`linadi.

Shaxs tajribasi - o`qish va amaliy tajribalar natijasida shakillanadigan, tayyorgarlik va bilim darajasini belgilaydigon odat, qiziqish, ishni sifatli bajara olish, malakalarning majmui.

Alohida ruhiy jarayonlarning turg`unlik xususiyatlari - e`tibor, qabul qilish, fikirlash esda saqlash, xissiyot, qat`iylik. Bular mashq qilish bilan shakillanadi.

Shaxsning biologic xususiyatlari - mijoz jinsiy va yosh ulg`ayishlarda namoyon bo`ladi.

Haydovchini yo`nalganini bilish uchun, uning nimaga intilishi maqsadga erishish uchun qaysi vositalardan foydalanib, hayotda qanday yo`l tutmoqchi ekanligini bilish kerak.

Shaxsning yo`nalganligi quyidagi sifatlari bilan harakterli; maqsadli jamoada ahamiyatli darajasi; maqsadga erishishga intilish va uningjamiyat uchun zarurligiga qat`iy ishonch.

Shaxsning yo`nalganligini uning biologic va ma`naviy extiyojlaridan kelib chiqadi. Bulardan birinchisi organizmning moddiy extiyojini qoniqtirsa, ikkinchisi estetik ahloqiy, aql idrokiy ehtiyojlarni qondiradi.

Talab va ehtiyoj hissiyotlar bilan chamberchas bog`langan. Shuning uchun shaxsning yo`nalganligi quyidagi shakillardi oladi: mayl sal - pal intilish; xohish - maqsad sari intilish; qiziqish - narsalarni bilishga intilish; moyillik - ma`lum faoliyatga intilish; ideal - aniq obraz, inson unga o`xshashga xarakat qilish.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Avtomobilni boshqarishda haydovchining kasbiy mahorati.
2. Avtomobilni boshqariluvchanligi.
3. Shaxsning barcha xususiyat va vazifalari.
4. Alohida ruhiy jarayonlarning turg`unlik xususiyatlari

V. Hisobot yozish:

1. Avtomobilni boshqarishda haydovchining kasbiy mahoratiga ta'rif bering.
2. Berilgan rasmlarni izohlang (14-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma'lumotlarini olish.

14-jadval.

№	Rasmlar	Berilgan rasimga ta'rif bering
1.	<p>The diagram consists of two parts. Part (a) shows a side view of a car's steering column and wheel assembly. Part (b) shows a circular wheel with a horizontal dashed line through its center. A vertical line from the center to the bottom contact point is labeled 'a'. An angle α is shown between a vertical line and a line from the center to the contact point. A horizontal arrow labeled 'v' points to the left, representing velocity. A force vector P_f is shown at the contact point.</p>	
2.	<p>The diagram shows a steering knuckle assembly. A vertical line represents the steering axis. Two lines representing the knuckle arms are shown. The angle between the vertical axis and one arm is labeled α_β. The angle between the two arms is labeled α_ζ.</p>	
3.	<p>The diagram shows two views of a cylinder. The left view shows a vertical cylinder with a downward force vector P_z and a horizontal force vector P_y pointing to the left. The right view shows a cylinder tilted at an angle δ from the vertical. A shaded area on the cylinder's surface is shown, with a horizontal force vector P_y pointing to the left.</p>	

AMALIY MASHG'ULOT № 15

MAVZU: Haydovchining etikasi.

I. Ishning maqsadi: Avtomobilni boshqarishda haydovchining etikasini o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Harakat xavfsizligini ta'minlashda inson yo'l harakatining asosiy ishtirokchilari bo'lib, haydovchi, yo'lovchi, piyoda harakatni tashkil qiluvchi sifatida qatnashadi.

Bularning ichida haydovchi hammasidan ko'ra muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun haydovchining psixologik, fiziologik va biologik imkoniyatlarini harakatni tashkil qilishda e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Etika - bu inson hayotining eng muhim tomonlaridan biri hisoblangan axloq-odob masalalarini o'rganuvchi falsafiy fan bo'lib, insonga uning o'z xususiyatidan kelib chiqib, to'g'ri hayot yo'lini o'rgatadi. Shuning uchun ham etika o'zida inson turmushi nazariyasini, hissiyotini o'rganishni va ayni vaqtda farovon hayot, baxt-saodatga erishish yo'llari haqidagi ta'limotni qamrab oladi.

Haydovchining etikasi - uning intizomlilikida, javobgarlikni his etishida, jamoaga munosabati kabi axloqiy sifatlarida namoyon bo'ladi.

Mehnatsevarlik, odamlarga mehribonlik, kamtarlik yaxshi va ishonchli odamlarga xos fazilatlaridir. Ishga qiziqmaslik, manmanlik, qo'pollik, atrofdagilarni hurmat qilmaslik, tartib-intizomni xush ko'rmaslik YTHni sodir etishga moyil shaxsning sifatlarini namoyon qiladi.

Haydovchilarning intizomsizligi, odatda, yo'llarda harakatlanish qoidalarini mensimaslikda ko'rinadi. Haydovchi faqat o'zini xavfsizligiga emas, balki boshqa harakatlanish ishtirokchilarining ham xavfsizligini o'ylashi kerak. Faqat o'zi qoida talablariga qat'iy rioya qilmasdan boshqalarning ham xatti-harakatini kuzatishi lozim. Boshqa harakat ishtirokchilari xatoga yo'l qo'yganda YTH sodir etmasligi uchun mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rishi zarur.

Harakatlanish ishtirokchilari orasida o'zaro hamjihatlikning yo'qligi faqat yo'llarda harakatlanish qoidalari talabini buzishdagina emas, balki tarbiyaning yo'qligi yoki bo'shligi ko'pchilik haydovchilarning xatti-harakatlarida ham ko'rinib turadi. Masalan, shaharlarda ayrim haydovchilar burilish paytida qoida talabini mensimasdan qatnov qismidagi piyodalarni o'tkazib yubormaydilar. Piyodalarni o'tkazib yuborishi kerak bo'lgan haydovchi ularga juda yaqinlashib, tovushli ishoralar va dag'-dag'a qilib qo'rqitish hollari ham uchraydi. Ko'pchilik haydovchilar ogohlantiruvchi ishoralar berishga hojat yo'qdek ish ko'radilar, yoki ularni ishoralaridan xatti-harakatlarini tushunish qiyin bo'ladi.

Harakatlanish ishtirokchilari noqulay vaziyatda yoki chorrahada tan ahvolda qolganlarida ularga nisbatan haydovchilarning befarq bo'ladigan holatlari ham

uchraydi. Masalan, qo‘shni qatorga qayta tizilayotgan haydovchiga nisbatan, ikkinchi haydovchi tezlikni kamaytirish va oraliq masofani oshirib, unga yordam berish o‘rniga, aksincha masofani qisqartiradi. Ba’zi bir paytlarda chorraha oldida dvigatel ishlamay o‘chib qoladi. Bunday hollarda ushbu haydovchining ahvolini tushunish va sabr toqat qilish o‘rniga, unga nisbatan haqorat, qo‘pollik, hatto ayrim haydovchilar juda baland va uzluksiz tovushli ishoralarni berib o‘tib ketadilar. Hatto eng tajribali haydovchi ham shunday tang ahvolga tushib qolishi va atrofdagilarning unga bildirgan munosabatidan o‘zini yo‘qotib, sarosimaga tushishi hech gap emas. Shunday ekan, har qanday haydovchi boshqalarning yordamiga muhtojlik holatiga tez-tez tushib turadi. Agar harakat ishtirokchilari o‘zaro xushmuomalada bo‘lib, xayrixoh va yordam berishga tayyor bo‘lsalar, YTH soni ancha kamayadi va ko‘ngilsiz hodisalarning oldi olinadi.

Haydovchining yo‘lga chiqish oldidan yoki yo‘lda spirtli ichimlik iste‘mol qilishi tartib-intizomi va farosati yo‘qligining eng og‘ir va xavfli ko‘rinishi hisoblanadi. Haydovchi faoliyatini nazorat qilmaydigan jamoalarda bunday salbiy xatti-harakatlar tez-tez uchrab turadi.

Spirtli ichimlik yoki narkotik modda iste‘mol qilganidan keyin ish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi va harakatlanish xavfsizligiga salbiy ta‘sir etib, xavf-xatarni yanada oshiradi.

Insonlarning o‘zaro munosabatlari juda murakkab, nozik, ma‘lum bir qoliplar bilan belgilab bo‘lmaydigan jarayondir. Yuqori darajadagi xavfli manba hisoblangan transport vositasini yo‘llarda boshqarish jarayonida haydovchi bilan boshqa haydovchilar, yo‘lovchilar, piyodalar, davlat yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari ma‘lum darajada munosabatda bo‘ladilar. Shu munosabat bilan, yo‘llarda odobli bo‘lishga jiddiy e‘tibor berilishini bilish kerak.

Harakatda ishtirok etadigan haydovchilarning axloq-odobi va ularning o‘zaro atrofdagilar bilan munosabatidan xavfsiz harakatlanishning zamini yaratiladi. Haydovchilar asosiy e‘tiborni yo‘lovchilarning xavfsizligiga ta‘sir etadigan so‘zlashish madaniyatiga, ya‘ni yo‘lovchilar va boshqa shaxslar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatiga qaratishlari lozim.

Jamiyat-turli yoshdagi, har xil xarakter va har xil kasb-hunar egalariyu, turli millatga mansub shaxslarning majmuidir. Ijtimoiy hayotdagi shaxslararo munosabatlar psixologiyasi har xil kishilarning bir-biri bilan aloqasidan, ijtimoiy mehnatda siyosiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda qatnashuvidan, moddiy-ma‘naviy boyliklar yaratishidan, uyda, ko‘cha- kuyda o‘zini tutishidan, ruhiy holatlari hamda muomala madaniyatidan kelib chiqadi. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasining kelib chiqishida, shubhasiz, har bir millatning xususiyatlari o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbeklarga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, betga chopmaslik, og‘ir vazminlik kabi fazilatlar muhitga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, haydovchining asosiy e'tiborni harakatlanish jarayonida yo'lovchilar va boshqa shaxslar bilan yaxshi munosabatda bo'lishi, piyodalar, ayniqsa, bolalar, nogironlar, qariyalarga va velosipedchilarga nisbatan ehtiyotkorlik choralarini ko'rishini uning kasbiy etikasini namoyon qilishi bilan birgalikda harakat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko'rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Etika nima.
2. Haydovchining etikasi.
3. Axloqiy faoliyat va Jamiyat tushunchasi.
4. DAN xodimi va haydovchilar munosabatlari.

V. Hisobot yozish:

1. Haydovchining etikasiga ta'rif bering.
2. Berilgan jadvalni to'ldiring (15-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko'rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma'lumotlarini olish.

15-jadval.

№	O'zbekiston Respublikasi mamuriy javobgarlik kodeksi moddalariga	Berilgan mamuriy javobgarlik kodeksi moddalariga ta'rif bering
1.	125-5	
2.	127-1 128-1	
3.	128 ¹ -1	
4.	128 ⁴ -1	
5.	128 ⁵ -1	
6.	129-1	
7.	130-1	
8.	131-1	
9.	133	
10.	134	


AMALIY MASHG'ULOT № 16

MAVZU: Transport ishini samarali va xavfsiz bajarish bo'yicha mumkin bo'lgan ko'rsatkich hamda avtomobilga ta'sir etuvch kuchlar.

I. Ishning maqsadi: Transport ishini samarali va xavfsiz bajarish bo'yicha mumkin bo'lgan ko'rsatkich hamda avtomobilga ta'sir etuvch kuchlarni o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Konstruktiv xavfsizlik - bu transport vositalarining ishlash jarayonida atrof-muhitga, harakat qatnashchilariga zarar yetkazishni yo'qotish, shuningdek YTH og'irlik darajasini pasaytirish qobiliyati.

Transport vositalarining konstruktiv xavfsizligi. Faol, sust, avariya dan keyingi va ekologik xavfsizliklarga bo'linadi. Transport vositalarining xavfsizliklari tarkibi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



Faol xavfsizlik - transport vositasining yo'l-transport xodisasini oldini olish (uning vujudga kelish ehtimolini kamaytirish) xususiyatlaridir. Faol xavfsizlik haydovchi transport vositasini (YTX; boshlangich davriga tugri keladi) harakatlanish xarakteriki o'zgartirishga qodir bo'lgan davrda vujudga keladi.

Sust xavfsizlik- transport vositasining YTX oqibatlarini og'irliklarini kamaytiruvchi xususiyatidir. Sust xavfsizlik haydovchi xavfsizlik tadbirlarini ko'rishiga qaramasdan avtomobilning harakatlanish xarakterini o'zgartira olmaydigan va falokatni bartaraf qila olmaydigan (YTH kulminatsion davri) davrda vujudga keladi.


Sust xavfsizlik ichki va tashqilarga bo'linadi. Ichki sust xavfsizlik transport vositasining uning ichidagi haydovchi va yo'lovchilarning shikastlanmasliklari bo'yicha xavfsizliklarini oshirish va xayotlarini saqlabqolish xamda yuklarni saqlashni ta'minlash bo'yicha konstruktiv xususiyatini belgilaydi.

Tashqi sust xavfsizlik harakatlanishning boshqa qatnashchilari uchun YTHoqibatlarini og'irliklarini kamaytirish qobiliyatidir.

Xalokatdan keyingi xavfsizlik - transport vositasining YTD tuxtagandan keyin (YTX so'ngi yakuniy davri) uning oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etash

xususiyatidir (yahni avtomobilning yonib ketishi, xarakatlanishning boshqa qatnashchilarini urib yuborishi va h.k.).

Ekologik xavfsizlik - transport vositasining normal foydalanish jarayonida atrof-muxitga va xarakatlanishning qatnashchilariga salbiy ta'siri darajasini kamaytiruvchi xususiyatlari. Ekologik xavfsizlik yuqoridagi fakat YTHda yuzaga keladigan uchta turdagi xavfsizlikdan farqli ravshda, transport vositasining kundalik ish davomida namoyon bo'ladi.



Avtomobil turg'unligining tasnifi

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko'rsatma.

IV. Amaliy qism:

1. Konstruktiv xavfsizlik.
2. Faol xavfsizlik.
3. Sust xavfsizlik.
4. Ekologik xavfsizlik.

V. Hisobot yozish:

1. Transport ishini samarali va xavfsiz bajarish bo'yicha mumkin bo'lgan ko'rsatkich hamda avtomobilga ta'sir etuvch kuchlarga ta'rif bering.
2. Berilgan jadvalni to'ldiring (16-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko'rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma'lumotlarini olish.

16-jadval.

№	Xavfsizlik turlari	Xavfsizlik turlariga ta'rif bering
1.	Konstruktiv xavfsizlik	
2.	Faol xavfsizlik	
3.	Sust xavfsizlik	
4.	Ekologik xavfsizlik	
5.	Turg'unlikka ta'rif bering	

AMALIY MASHG'ULOT № 17

MAVZU: Avtomobilni chorrahalarida va har xil yo'l sharoitlarida boshqarish.

I. Ishning maqsadi: Avtomobilni chorrahalarida va har xil yo'l sharoitlarida boshqarishni o'rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Yo'l harakati qoidalarida berilgan atamalarda chorrahaga quyidagicha ta'rif berilgan:

Chorraha – yo'llarning o'zaro bir sathda kesishadigan, tutashadigan va ayriladigan joyi bo'lib, bu yerda harakatlanish tartibga solingan yoki tartibga solinmagan bo'lishi mumkin. Yondosh hududlarning asosiy yo'lga qo'shilgan joylari chorraha hisoblanmaydi. Dastlab piyodalarning harakatlanishi to'g'risida so'z yuritamiz. Ular ko'chaning transport qatnaydigan qismini trotuar chiziqlari bo'ylab kesib o'tishlari kerak. Shu bilan birga, ularning xatti-harakati chorrahani kesib o'tishda, ko'chaning chap yoki o'ng tomonidan kelayotganiga ham bog'liq. Masalan, siz ko'chaning o'ng tomonidan chorrahaga yaqinlashib keldingiz. Uni kesib o'tishdan oldin, ko'chaning transport qatnaydigan qismi bo'shligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Sizning orqangizdan chorrahaga yaqinlashayotgan va o'ng tomonga burilmoqchi bo'lgan avtomobilni payqab olish ancha mushkul.

Avtomobilning qayrilishini undagi burilishni ko'rsatuvchi chirog'ining yoqib qo'yilganligidan bilish mumkin. Haydovchi sizni payqaganligiga va sizni o'tkazib yuborish uchun tezlikni kamaytirganiga ishonch hosil qilgach, ko'chani kesib o'tishingiz mumkin.

Ammo shoshilmang! Chap tomoningizda to'g'ridan chorrahaga yaqinlashayotgan avtomobil xavfi bor. Bu avtomobil piyodalarga yo'l berishi kerak emas. Ko'chaning o'rtasiga borgach, o'ng tomoningizga e'tibor bering, bu tomondan avtomobillar kelishi mumkin. Agar ular bo'lmasa, ko'chani kesib o'tishda davom eting. Endi boshqa vaziyatni ko'rib chiqamiz. Siz chorrahaga ko'chaning chap tomonidan yaqinlashdingiz. Uning transport qatnaydigan qismiga qadam bosishdan oldin chap tomonga qarang va yaqinlashib kelayotgan transportning yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Agar transport bo'lmasa, yo'lning birinchi yarmini bamaylixotir o'tishingiz mumkin. Ikkinchi yarmida murakkabroq bo'ladi. Bu yerda uch tomondan avtomobillar kelib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda ham qoidaga amal qilinadi, siz o'ng tomonda to'g'ridan kelayotgan avtomobilni o'tkazib yuborishingiz lozim.

Chorrahalaridan harakatlanib o'tish murakkab jarayon bo'lib, unda haydovchi transport oqimidan ajralib chiqishda, boshqa transport oqimi va piyodalarning yo'lini kesib o'tishda ma'lum ziddiyatlar hosil qiladi.

Oqimdagi transport vositalari ko'paygan sayin mana shu ziddiyat joylarida xavf-xatar darajasi oshib boradi va yo'l-transport hodisalari sodir etilishi mumkin. Shu sababli transport oqimi yuqori bo'lgan yo'llarning kesishgan chorrahalarida harakatlanib o'tish navbatini tartibga solish bilan ziddiyatlarni kamaytirish mumkin. Bir sathda kesishgan serqatnov yo'llarning chorrahasida harakatlanib o'tish navbatini

svetofor yoki tartibga soluvchi belgilaydigan bo'lsa, bunday chorraha tartibga solingan chorraha hisoblanadi.

Serqatnov katta chorrohalarda transport va piyodalarning Harakatlanishi svetofor yoritkichlari, shuningdek tartibga soluvchi shaxs tomonidan tartibga solinadi. Katta oqimdagi harakat ishtirokchilarini chorrohalarda tartibga solish va ularning xavfsizligini ta'minlash uchun svetoforlar, yo'l belgilari, transport qatnaydigan qismiga zarur belgilar qo'yib chiqish kabi turli xildagi texnik vositalardan foydalaniladi. Bu chorrohalarda transport vositalari va piyodalarning navbat bilan harakatlanib o'tishlari, transport oqimining serqatnovligi va zichligiga, piyodalar kesib o'tadigan yo'lning eniga qarab, sonlar bilan belgilanadi. Chapga yoki o'ngga burilayotgan haydovchi kesishayotgan yo'lning qatnov qismidan o'tayotgan piyodalarga, shuningdek, velosiped yo'lkasidan yo'lni kesib o'tayotgan velosipedchilarga yo'l berishi ko'rsatilganidek, o'ngga burilayotgan transport vositalari svetoforning yashil chirog'i yongan taqdirda ham piyodalarga yo'l berishi kerak.

Trayektoriyasini o'zgartirayotgan haydovchi trayektoriyasini o'zgartirmayotgan transport vositalari va piyodalarga yo'l beradi svetoforning yashil chirog'ida chapga burilayotgan qizil avtomobil piyodani, o'ngga burilayotgan yashil avtomobil o'z yo'nalishi bo'yicha ketayotgan velosipedchi va piyodani o'tkazib yuborishi shart. tartibga soluvchining ruxsat etuvchi ishorasida chapga burilayotgan qizil avtomobil hamda o'ngga burilayotgan yashil avtomobil piyodani o'tkazib yuborishi kerak.

Miltillovchi sariq ishorada, svetoforlar ishlamayotgan yoki tartibga soluvchi bo'lmagan chorrohalarda haydovchilar tartibga solinmaydigan chorrohalardan o'tish qoidalariga, chorrahada o'rnatilgan imtiyoz belgilariga amal qilishlari shart.

Quyidagi hollarda svetoforning yashil chirog'ida chorrahaga kirish taqiqlanadi:

- tartibga soluvchining ishorasi svetoforning ishorasiga zid bo'lganda;
- chorraha oldida «Kirish taqiqlanadi», «Xatar» vaqtinchalik yo'l belgilari o'rnatilgan bo'lsa;
- boshqa yo'nalishda imtiyozga ega bo'lgan maxsus transport vositalari yoki saflanib harakatlanayotgan transport vositalari chorrahaga yaqinlashayotganda;
- chorrahada transport vositalarining tirbandligi tufayli yo'l yopilib qolsa;
- chorrahaga kirishda piyodalar yo'lni kesib o'tishga ulgurmagan bo'lsa;
- chorrahada boshqa yo'nalishda qayrilishni tugallayotgan transport vositasi bo'lsa.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko'rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko'rsatma.






IV. Amaliy qism:

1. Chorrohalarda harakatlanish.
2. Svetoforlarning turlari.
3. Asosiy va ikkinchi darajali yo'llarda harakatlanish.

V. Hisobot yozish:

1. Chorraxalarda va har xil yo`l sharoitlarida harakatlanish qoidalariga ta`rif bering.
2. Berilgan jadvalni to`ldiring (17-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

17-jadval.

№	Chorraxalarning turlari	Berilgan chorraxalarga ta`rif bering
6.		
7.		
8.		
9.		
10.		

AMALIY MASHG'ULOT № 18
MAVZU: Parkinglar va ularning turlari.

I. Ishning maqsadi: Parkinglar va ularning turlarini o`rganish hamda tahlil qilish.

II. Umumiy ma'lumotlar: Respublikamizda kundan-kunga avtomobillashtirishga bo'lgan talab oshganligi tufayli avtomobillarni ma'lum bir tartibda saqlashga, to'xtab turishiga va parkinglarga ham katta e'tibor berilmoqda.

Agar avtomobilingizni sovuq, nam havoda ertalabgacha ochiq joyda qoldirishingizga to'g'ri kelsa va mashinangiz oyna tozalagichning muzlab oynaga yopishib qolishidan xavotirlanayotgan bo'lsangiz, u holda oyna bilan oyna tozalagichning orasiga biror narsani qo'yish maqsadga muvofiq.

Barcha avtomobillarning pastki qismida glushitel, havo chiqish trubalari joylashganligi sababli ular harakat paytida qattiq qizib ketadi. Sizga ma'lumki, aksariyat yengil avtomobillar juda past bo'ladi, shu sababli avtomobilingizni to'xtab turish joyiga qo'yganingizda yoki to'xtagan vaqtingizda avtomobil tagida biron-bir qog'oz yoki mato parchasi, quruq o't bo'lsa, yong'inga sabab bo'lishi mumkin.

Yengil avtomobillarning ana shu tomonlarini ham hisobga olish lozim.


Avtomobilni daraxtlar, elektr simlari tagiga va ko'p qavatli uylar oldiga qo'yish ham xavfli hisoblanadi. Chunki daraxtlarning yoki sim yog'ochlarning qulashi, elektr simlarning uzilib tushishi avtomobilga zarar yetkazishi mumkin.


Ko'p qavatli uylar oldida ham ba'zan noxushliklar bo'lishi mumkin. Masalan, mashinaning ustiga ko'p qavatli uydan biron-bir narsa tushib ketishi yoki biror kimsa narsa uloqtirishi mumkin.

Avtomobilni to'xtash joyiga shunday joylashtirish kerakki, u boshqa avtoulavlarga zarar yetkazmagan holda tez va qulay bo'lishi ya'ni orqaga harakatlanib joylashtirish lozim.


Avtomobillarni parkovka qilish 3 xil usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

- qatnov qismiga parallel;
- qatnov qismiga perpendikular;
- qatnov qismiga burchak ostida.





So`nggi yillarda fan texnika, ayniqsa avtomobil transportining rivojlanishi va yangi texnologiyalarni keng joriy etilishi natijasida insoniyatning tabiatga ko`rsatayotgan ta`siri tobora jadallashib bormoqda. Inson va tabiat orasidagi o`zaro munosabatlar murakkablashib, ushbu ta`sir esa tabiy omillar bilan qiyoslanmoqda. Shuning uchun ham atrof-muhitni muxofaza qilish xozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.



Ma'lumotlarga qaraganda, inson sog`lig`ining 67-74% tashqi muhit, ovqatlanish va yashash sharoitiga, 16-18% genetik va nasliy omillarga va faqatgina 10-15 % gina sog`liqni saqlash xizmatiga bog`liq ekan.

Shuningdek jamiyatimiz rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan, atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy ta`sir etayotgan bir qancha ekalogik muammolarning mavjudligi barchamizni tashvishga solishi tabiiy.

Ushbu muammolarni yechimini topish uchun Respublikamizning barcha xududlarida obodonlashtirish, atmosfera havosini yaxshilashga ko`kalamzorlashtirish hamda turli turdagi daraxtlar ekilib jadal suratlarda ishlar olib borilmoqda.

Avtomobil transportini rivojlanishi va keskin ko'payishi natijasida, saqlash maydonlari va joylari ham ortmoqda. Natijada shahar hududida bog'lar, gulzorlar va sayilgothlar o'rni avtomobillarning to'xtab turish hamda saqlash joylari egallamoqda. Bir dona avtomobilning o'rtacha joy egallashi 16 m² ni tashkil qiladi. Bugungi kunda Andijon viloyatida 147 mingdan ortiq avtomobil transporti vositalari mavjud bo'lib, shundan Andijon shahrida turadigan yani saqlanadigan shuningdek kelib to'xtab turib ketadiganlari 40 mingdan ko'proqni tashkil qiladi.

Agarda kelib turadigan va saqlanishda bo'ladigan har bir avtomobillar Andijon shahri hududida 16 m² ni band qilsa 40 mingta avtomobil (40000*16=640000 m²) olti yuz qirq ming metr kvadrat joyni egallagan bo'ladi. Bunday xolat va vaziyatdan chiqish uchun avtomobillarni saqlash va to'xtab turishi uchun ko'p qavatli yer usti yoki yer osti avtomobillar saqlash postlariga (saroylariga) joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Yer ostidagi avtomobil saqlash joylari yo'llar, ko'chalar, ko'priklar, gulzorlar, bog'lar, sayilgothlar va imoratlar ostiga joylashtiriladi.

Yer usti avtomobillar to'xtash joylari ko'p qavatli qilib loyihalanadi, saqlash joylaridan tashqari u yerda, birinchi qavatida avtomobillarni yuvish posti, texnika xizmati ko'rsatish va ta'mirlash sexlari, is gazi CO² nazorat qiladigan ekologiya bo'limi, extiyot qismlar do'koni hamda avtomobil egalari uchun ma'ishiy-servis xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil qilinadi.



Zamonaviy ko'p qavatli avtomatlashtirilgan doira shaklidagi avtostoyankaning umumiy tashqi va ichki ko'rinishi (ELEVATOR).

Yuqorida ko`rib o`tilgan avtomatlashtirilgan parkovkalar AQSH ning Chikago shahrida 60 qavatli binoning pastki 19 ta qavatida 900 o`rinli avtomobil saqlash joylari o`rnashgan.

Fransiyaning Parij shahrini Monparnas xiyoboni xududida 824 o`rinli 6 qavatli yer osti, Alban-Satran xiyoboni xududida 855 o`rinli 6 qavatli yer osti avtomobil saqlash joylari qurilgan. Parij shahrida xuddi shunday yer osti va yer usti avtomobillar saqlash joylari inshootlari 67 tadan ortiqni tashkil qiladi.

Huddi shunga o`xshash avtostoyankalar Andijon shaxrida ham qurilsa, shaxrimizning tirbant zonalaridagi muammolar:

- yo`lning 1-bo`lagi band bo`lmoqda.

- yo`nalishdagi taksilar va avtobuslar 2-bo`lakda to`xtab yo`lovchilarni olish yoki tushirishmoqda.

- natijada yo`lda tirbandlik yuzaga kelmoqda.

Agarda zamonaviy ko`p qavatli parkinglar qurilsa:

- yer tanqisligi oldi olinib, joydan unumli foydalaniladi.

- yo`l chetiga avtomobillar qo`yilmaganligi sababli yo`lning kengligi saqlanib qoladi.

- transport vositalarining xavfsizligi ta`minlanadi.

- ko`p qavatli avtostoyanka shahar ko`rkiga ko`rk qo`shadi.

III. Jihozlar va adabiyotlar:

1. Notebook va videoprojektor.
2. Ko`rgazmali vositalar.
3. Uslubiy ko`rsatma.


IV. Amaliy qism:



1. Parkovkalar va ularning turlari.
2. Avtomatlashtirilgan parkovkalarining jixozlanishi.
3. Avtomatlashtirilgan parkovkalarga kirish postining jixozlanishi.

V. Hisobot yozish:

1. Parkinglar va ularning turlariniga ta`rif bering.
2. Berilgan jadvalni to`ldiring (18-jadval).
3. Yuqorida bayon qilingan ko`rib chiqilgan ishlar yuzasidan internet ma`lumotlarini olish.

18-jadval.

№	Parkovkalarining turlari	Berilgan parkovkalarga ta`rif bering
1.		

<p>2.</p>		
<p>3.</p>		
<p>4.</p>		
<p>5.</p>		

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. Yo`l harakati qoidalari. Rasmiy nashr. Toshkent, Adolat: 2016 y, -120 b.
2. Q.X.Azizov Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2009-244 b.
3. A.A.Akilov, Q.A.Karimova, Sh.Sh.Rizayev. Yo`l harakati qoidalariga suratli sharhlar va mavzuga oid testlar. Toshkent, Avtohamroh 2017 y., 192 b.
4. N.F.Muxitdinov, J.R.Kulmuhamedov. Yo`l harakati qoidalariga suratli sharhlar va yuqori tezlik chegaralari. Toshkent, 2016 y., 96 b.
5. В.И.Конопленко и др. Организация и безопасность дорожного движения: Учеб.для вузов/ В.И.Конопленко. М.: “Высш.шк.”, 2007-383 стр.

QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR.

1. Azizov Q.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T.: “Yozuvchi”, 2002-182 b.
2. Q.X.Azizov. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Toshkent, 1999, 113 b.
3. “Avtohamroh” jurnali 1999-2017 yy.

INTERNET SAYTLARI.

1. www.gai.auto.ru.
2. www.uzavto@list.ru.
3. www.adolatnashr.uz.
4. info@adolatnashr.uz.

